

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTABTA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI**

UMAROVA NILUFAR XASANOVNA

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI
DIREKTORLARIDA KOMMUNIKATIV
STRATEGIYALARNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

Uslubiy qo'llanma

Toshkent – 2025

UDK 371.2:005.57:371.13

BBK 74.204 + 88.4

U62

Umarova N.X. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarida kommunikativ strategiyalarni rivojlantirish metodikasi // Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, – “ACCESS SERVICE” nashriyoti, 2025-y. – 121 bet.

Muallif:

N.X.Umarova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Taqrizchilar:

G.Fayzullayeva – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasи mudiri, p.f.d., dots.

E.Alkarov – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti bo‘lim boshlig‘i, p.f.f.d., dots.

Ushbu uslubiy qo‘llanma umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda kommunikativ kompetentlilikning o‘rni, kommunikativ strategiyalar boshqaruv vositasi ekanligi, boshqaruv muloqoti va uning asosiy xususiyatlari, vositalari, shakllari hamda menejmentda boshqaruv faoliyatini takomillashtirishga doir nazariy ma’lumotlar va amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qo‘llanmadan ta’lim tashkilotlari direktorlari, rahbar xodimlari, “Menejerlik o‘quv kursi” tinglovchilari, shuningdek shu yo‘nalishda ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar va xodimlar foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9910-8133-8-2

Uslubiy qo‘llanma A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ta’lim menejmenti” kafedrasining 2025-yil 31-yanvardagi №1-son yig‘ilishida va institut Ilmiy Kengashining 2025-yil 20-fevralda bo‘lib o‘tgan №1-son majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya qilindi.

KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham bir qator o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘zbekiston uchinchi ming yillikda jamiyat hayotining turli sohalari jumladan, ta’lim tizimi sohasini tubdan isloh qilish jarayoniga qadam qo‘ydi. Ta’lim har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, ma’naviyati va madaniyati darajasining ko‘rsatkichi shuningdek, taraqqiyotining asosidir.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston - maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz deb ta’kidladilar.

Ta’lim sohasidagi doimiy o‘zgarishlar yangi kompetensiyalar shakllanishini taqazo etadi, bu esa rahbarga o‘zgaruvchan muhitda ota-onalar va maktab o‘quvchilarining ta’lim ehtiyojlarini tahlil qilish, maktabdagi o‘zgarishlar amalga oshirilishini baholash, muassasa faoliyati samaradorligi mezonlaridan kelib chiqib, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga imkon beradi. Ta’lim va menejment sohasida ilm-fan va texnologiyaning mahalliy va xorijiy yutuqlarini o‘rganish va amalda qo‘llash, yetakchilik fazilatlarini takomillashtirish, odamlarga ta’sir o‘tkazish usullari, nizolarni va vaqt ni boshqarish asoslarini o‘zlashtirishga tayyorgarlik har bir zamonaviy rahbarning faoliyatida zaruriy kompetensiyalar asosidagi strategik yondashuvlarni talab etmoqda.

Hozirgi kun rahbari - o‘z fikrini aniq va ravshan ifodalash, o‘z pozitsiyasini asoslash, sheringining fikrlarini tahlil qilish, tegishli takliflarni tanqidiy baholashni bilishi kerak. Buning uchun zarur bo‘lgan shart bu – tinglashni bilish, suhbatni olib borish, do‘stona muhit yaratish, yaxshi taassurot qoldirishni bilishdir va buning uchun tegishli tayyorgarlik talab etiladi. Ushbu uslubiy qo‘llanmaning asosiy maqsadi - umumiyl o‘rta ta’lim maktabi direktorlarida kommunikativ strategiyalarni qo‘llash bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Shu bilan birga, ushbu qo'llanmada ta'lim tashkiloti direktorlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda kommunikativ kompetentlilikning o'rni, kommunikativ strategiyalar boshqaruv vositasi ekanligi, boshqaruv muloqoti va uning asosiy xususiyatlari, vositalari va shakllari haqida ma'lumot beriladi. Qo'llanmada keltirilgan taklif va tavsiyalardan umumiyl o'rta ta'lim maktabi direktorlari boshqaruv muloqotida foydalanishlari maqsadga muvofiq.

I. BOB.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKtablari DIREKTORLARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING O'RNI

1.1.Kommunikativ kompetentlikning nazariy asoslari

Zamonaviy ta'lismi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri - rahbar kadrlarda kasbiy kompetensiyalarni, xususan, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishdir. Jamiyatda shaxslararo munosabatlar murakkablashib borayotgan bir paytda, har bir ta'lim tashkiloti rahbarining samarali boshqaruv faoliyati ko'p jihatdan ularning muloqotga kirishish, fikr almashish, nizolarni hal qilish va jamoani bir maqsad atrofida birlashtirish qobiliyatiga bog'liq bo'lib bormoqda. Ayniqsa, "inson-inson" tizimida faoliyat yurituvchi rahbarlar uchun kommunikativ kompetensiya nafaqat kasbiy muvaffaqiyatning, balki boshqaruv jarayonining asosiy omiliga aylangan. Shu sababli kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslarini chuqr o'rganish, uning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, komponentlari va funksional imkoniyatlarini aniqlab olish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ kompetensiya rahbardan to'laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda jamoa a'zolari, o'quvchi va ota-onalar bilan ijobiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Komunikatsiya (lot. communicatio - xabar, uzatish¹) - keng ma'noda turli xil ma'lumotlarni yaratish, uzatish va qabul qilish imkonini beradigan o'zaro ta'sir jarayoni va aloqa usullari²dir. Shuningdek ko'plab manbalarda u odamlar o'rtasida o'zaro ta'sirning amalga oshirilishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kommunikativ kompetensiya - bu subyektning o'zaro ta'sirga tayyorligi, uni amalga oshirish qobiliyati va o'zaro ta'sirda tajriba orttirishdir.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi K harfi. Davlat milliy nashriyoti:. Toshkent, 528-b.

² Ф.И.Шарков Коммуникология. Основы теории коммуникации. Учебник / Ф. И. Шарков. – М.: Дашков и Ко, 2014. – с. 100.

Kommunikativ kompetensiya insonlar bilan bevosita muloqot qilish bilan bog‘liq bo‘lgan kasb vakillariga yoki boshqacha aytganda “inson-inson” tizimiga tegishli. Kommunikativ kompetensiya bir tomondan inson qobiliyatlari bilan belgilansa, boshqa tomondan esa, u olingan bilimlar, ko‘nikmalar va hatto qadriyatlar yo‘nalaishlari bilan bog‘liq. Ilmiy manbalarning tahlili bizni har qanday rahbar egallashi lozim bo‘lgan asosiy, “kalit” kompetensiyalardan biri kommunikativ kompetentlik ekanligiga ishontiradi, zero o‘z kasbiy faoliyatida rahbar, muloqotning faol subyekti sifatida: turli xil odamlar bilan muloqot qila olishi, ularni o‘z fikr, g‘oyalarining to‘g‘ri, adolatli ekanligiga ishontira olishi, o‘z professional nuqtai nazari, qarashlarini himoya qila olishi, kommunikativ malakalarni egallagan bo‘lishi, nizo va ziddiyatlarga yechim topib, hal qila olishi lozim.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi borasida fikr yuritar ekanmiz, avvalo kompetensiya va kompetentlik tushunchalari mazmunini oydinlashtirib olish darkor.

Xo‘sish, kompetensiya nima? Kompetensiya so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma’noni bildiradi. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa “musobaqalashishga layoqatlichkeit” ma’nosini bildiradi. Atamaning mohiyati shuningdek, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaqqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlilik”, “xossa”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanadi. Kompetensiya atamasi turli ilmiy manbalarda turlicha izohланади. Birinchi marta ushbu atamasi amerikalik tilshunos Massachuses universiteti professori Noem Xomskiy tomonidan 1965-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. U insonning har qanday faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini tasniflash uchun “kompetensiya” tushunchasidan foydalanishni taklif qildi. Pedagogikada “kompetensiya” tushunchasi 1989-1993-yillarda kiritilgan va “ta’lim jarayonining yakuniy natijasi”, “kompetensiya” yoki “amaldagi kompetensiya” deb talqin qilingan.

Kompetentlik - bu faqatgina o‘zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi hamda salmoqli hajmi bo‘libgina qolmay,

balki, ularni kerak vaqtida qo'llay olish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir. Namunalarga o'xhash harakatlarni ko'zda tutadigan "bilim, ko'nikma va malakalar"dan farqli o'laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Kompetentlik - ijtimoiy amaliyot ko'rinishidagi bilim va ko'nikmalarning mavjudligi bo'lib, u ta'lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darjasи demakdir.

Kompetentlikning mavjudligi to'g'risida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har qanday rahbarning kompetentlilik darjasи uning bajargan ishi, kasbiy faoliyatining yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Demak, kompetentlik to'g'risida rahbarning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, balki faoliyatning natijasiga qarab baho berish to'g'ri bo'ladi. Xuddi shuningdek, savodxonlik darajasiga qarab ham kompetentlikni belgilab bo'lmaydi.

M.A.Choshanov fikricha, kompetentlik - kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlari qiyudagilar:

-kompetentli rahbarning bilimlari amaliy tezkor va harakatchan, ular doimo yangilanib turadi;

-kompetentlik mazmuni (bilimlar) va jarayonlarga doir (ko'nikmalar) komponentlarga ega. Muammoning mazmunini tushunishning o'zi yetarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, ya'ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy xarakteristikasi hisoblanadi;

-kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri yo'llarni chiqarib tashlash, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida ko'rsatilgan tushunchalar o'rtasida terminologik aralashuv tobora ko'proq uchrayapti. Shuning uchun, biz avvalo "kompetensiya" va "kompetentlik" ta'riflari o'rtasidagi farqlarni ko'rib chiqish va tahlil qilishni muhim deb hisoblaymiz. Psixologik-pedagogik manbalarda "kompetensiya" tushunchasining yagona ta'rifи

mavjud emas. Quyida kompetensiya tushunchasining turli mualliflar tomonidan keltirilgan ta’riflarini ko‘rib chiqamiz (1.1.1-jadvalga qarang).

1.1.1-jadval. “Kompetensiya” tushunchasining ta’riflari

Nº	Muallif	Ta’rif
1.	S.I.Ojegov, N.Yu.Shvedova	Kompetensiya - bu mas’uliyatli, bilimli va tajribali bo‘lgan shaxs uchun muayyan savollar va hodisalar doirasi.
2.	A.V.Xutorskiy	Kompetensiya - shaxsning o‘zaro bog‘liq sifatlari (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, faoliyat usullari) majmui bo‘lib, ma’lum bir predmetlar va jarayonlarga nisbatan aniqlanadi va ularga nisbatan sifatli va samarali faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘ladi.
3.	I.A.Zimnya	Kompetensiya - bu yangi shakllanishlar, bilimlar, qadriyatlar tizimi va munosabatlar majmui bo‘lib, bu shaxsiy faoliyatning qiymatli, ma’noli, xulq-atvor, motivatsion, emotsional-evolyutsional, kognitiv natijalarini yaratishga yordam beradi.
4.	A.V.Korotun	Kompetensiya - shaxsning integrativ xususiyati bo‘lib, bu uning professional faoliyatida bilim, ko‘nikma, malakalar, shaxsiy sifatlarni qo‘llashga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiradi, bu esa uni o‘z faoliyatini amalga oshirishga rag‘batlantiradi va o‘z faoliyatining natijalarini o‘z-o‘zini baholash imkonini beradi.
5.	I.A.Larionova, V.A.Degterev	Kompetensiya - bu predmet sohasida, individual yaxshi xabardor bo‘lib, faoliyatni bajarishga tayyor bo‘lganlikni ko‘rsatadi.

Endi kompetentlik tushunchasining ta’riflarini turli mualliflar talqinida ko‘rib chiqamiz (1.1.2-jadvalga qarang).

1.1.2-jadval. “Kompetentlik” tushunchasining ta’riflari

Nº	Muallif	Ta’rif
1.	S.I.Ojegov, N.Yu.Shvedova	Kompetentlik (lotincha competens - mos, qobiliyatli) - bajarilayotgan ishning mohiyatini, belgilangan maqsadlarga erishish usullari va vositalarini chuqur va to‘liq bilish, shuningdek, tegishli ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish.
2.	I.A.Zimnya	Kompetentlik - bu hayot davomida shakllanadigan, etnosotsial va madaniy jihatdan belgilangan, faoliyatda va boshqa odamlar bilan o‘zaro aloqada yangilanadigan, bilimlarga asoslangan, intellektual va shaxsiy jihatdan ta‘sirlangan integrativ shaxsiy sifat bo‘lib, ta’lim jarayonida rivojlanib, uning natijasiga aylanadi.
3.	A.A.Cheremishina	Kompetentlik - odamning ishni bilish bilan bajarishga barqaror qobiliyati bo‘lib, bu bajarilayotgan vazifalarning va hal qilinayotgan muammolarni chuqur tushunish, ushbu sohadagi mavjud tajribani yaxshi bilish, uning eng yaxshi yutuqlarini faollashtirish, joy va vaqt sharoitlariga mos keladigan vosita va usullarni tanlash, erishilgan natijalar uchun javobgarlikni his qilishdan iborat.
4.	V.S.Bezrukova	Kompetentlik - professional ravishda to‘g‘ri fikrlar, baholar va mulohazalarni bildirishga imkon beradigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
5.	J.Raven	Kompetentlik - bu ma’lum bir predmet sohasida aniq bir harakatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan xususiy qobiliyat bo‘lib, o‘z ichiga torspetsifik bilimlar, maxsus predmet ko‘nikmalari, fikrlash uslublari, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni tushunishni ham o‘z ichiga oladi.

Ta’riflar va tushunchalarni solishtirgan holda, biz “kompetentlik” tushunchasi “kompetensiya” tushunchasidan kengroq ekanini angladik. “Kompetentlik” ta’rifining asosiy mohiyati xususiyatlarini ajratish mumkin. Ularga mualliflar quyidagi xususiyatlarni kiritadilar: shaxsiy sifatlar (I.A.Zimnya), faollikka bo‘lgan individual qobiliyat (J.Raven, A.A.Cheremishina), bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish (V.S.Bezrukova), shuningdek, tegishli kompetensiyaga ega bo‘lish (A.V.Xutorskiy). Shunday qilib, kompetensiya bilimga asoslansa, (odam nimani bilishi kerak), kompetentlik esa faoliyatga asoslangan (odam nima qilishni biladi).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, rahbar boshqaruv faoliyatida kommunikativ kompetentlikning ahamiyati muhimligini anglaymiz. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlarda bir qator olimlar tomonidan kommunikativ kompetensiya nima ekanligi to‘g‘risida yagona fikr mavjud emas. Quyida ba’zi yondashuvlarni kontent-tahlil shaklida jadval ko‘rinishida keltiramiz:

1.1.3-jadval. “Kommunikativ kompetentlik” tushunchasiga oid asosiy yondashuvlar

Nº	Muallif	Aniqlovchi so‘z	Tor ma’noda	Keng ma’noda
1.	K.Yu.Sukhanova	Qobiliyat	Boshqalarni ng nuqtai nazarini tinglash va e’tiborga olish	Fikr almashish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, ommaga chiqish, qarorlar qabul qilish, aloqa o‘rnatish va qo’llab-quvvatlash, turli fikrlar va nizolarni hal qilish, muzokaralar o‘tkazish, hamkorlik qilish va jamoada ishlash
2.	I.A.Zimnya	Muloqot	An’analar, marosimlar, etiketni	Og‘zaki, yozma, dialog, monolog, matn yaratish va tushunish;

			bilish va ularga rioya qilish	madaniyatlararo muloqot; ish hujjatlari, biznes tili; xorijiy tilda muloqot, kommunikativ vazifalar, ta'sir ko'rsatish darajalari
3.	G.K.Selev-ko	Muloqot-ga kirish uchun tayyorlik		Tushunilish va erkin muloqot qilish
4.	E.A.Golov-ko	Qobiliyat		Odamlar bilan muloqotda istalgan natijalarga erishish, nojo'ya ta'sirlardan qochish
5.	A.K.Markov	Hukmronlik	Ijtimoiy mas'uliyatni shakllanti-rish va o'z faoliyatining natijalariga javobgarlikni olish	Jamoaviy professional faoliyat va professional muloqot usullarini egallash

Yuqorida ko'rib chiqilgan yondashuvlar asosida kommunikativ kompetensianing mohiyatini quyidagicha aniqlash mumkin: bu turli xil (noverbal va verbal, og'zaki va yozma) kommunikativ vazifalarni (ma'lumot uzatish, muzokaralar o'tkazish, aloqalar o'rnatish va qo'llab-quvvatlash va boshqalar) hal qilish uchun aloqalarga kirishishga qobiliyatlilik va tayyorlik.

Kommunikativ kompetensianing ta'rifini ko'rib chiqishda, kommunikativ kompetensianing komponentlariga e'tibor qaratish lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, turli mualliflar kommunikativ kompetensianing komponentlari borasida ham turli yondashuv va


qarashlarga ega. Adabiyotlarni tahlil qilish asosida ularning asosiy qismlarini jadval ko‘rinishida taqdim etamiz.

1.1.4-jadval. Kommunikativ kompetensiya komponentlarini aniqlashga oid asosiy yondashuvlar

Nº	Muallif	Kommunikativ kompetensiya komponentlari		
1.	Yu.M.Jukov	Texnik daraja	Taktik daraja	Strategik daraja
2.	Yu.N.Emel-yanov	Umumiy qobiliyat (o‘qitish)	Kommunikatsion bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar	Shaxsiy xususiyatlar
3.	L.A.Eerreera	Kognitiv komponent	Motivatsion-psixologik komponent	Xulq-atvor komponenti
4.	R.V.Kozyakov	Funktsional-operatsion bog‘lanish	Motivatsion-omillarga asoslangan komponent	Shaxsiy fazilatlar komponenti
5.	N.B.Burto-yeva	Psixofiziologik daraja	Individual-psixologik daraja	Ijtimoiy-psixologik daraja
6.	I.A.Zimnya	Motivatsion-qiymat komponenti	Kognitiv komponent	Operatsion faoliyat komponenti
7.	A.A.Yarulov	Ratsional komponent	Xohish komponenti	Emotsional komponent
8.	E.V.Rudenkiy	Diagnostik komponent	Dasturlash komponenti	Tashkiliy komponent

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqqan holda, biz Kommunikativ kompetensiya masalasida ko‘plab tadqiqotchilarning fikrlari asosida ushbu kompetensiyaning ko‘p komponentli ekanligiga amin bo‘lamiz.

Umumiy o‘rtalama maktablari direktorlarining kompetensiyalari tarkibida kommunikativ kompetensiyaga birinchi qatordan o‘rin ajratilgan (1.1.1-rasm³):



Kommunikativ kompetentlik ko‘rsatkichlari:

- o‘zgalar fikrini hurmat qilishini namoyon qila olish;
- o‘zgalar fikriga ta’sir etuvchi (ishontira olish, to‘g‘rilash, fikrni qarama-qarshi qo‘yish) muloqot maneralarini tanlay olish;
- o‘zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o‘zaro munosabatlarini o‘rnatishga qaratilgan (qo‘llab-quvvatlash, konspektiv, ruxlantiruvchi) muloqot shakllarini tanlay olish;
- ta’lim jarayoni sifatini oshirish va ta’lim oluvchilarining o‘quv ehtiyojini qondirish maqsadida o‘z hamkasblari bilan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalari yordamida aloqa o‘rnata olish va hamkorlik qilish;
- ta’lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish;

³ “Davlat ta’lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi 121-sonli buyrug‘i

- o‘zgalar bilan o‘zaro hurmat asosida qurilgan munosabatlarni o‘rnata olishi;
- o‘zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda ahloq normalariga rioya etish;
- milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas’uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qila olish.

Shuningdek, maktab direktorlarining Umumiyl o‘rta ta’lim maktabi direktori kasb standartida hamkorlar bilan og‘zaki va yozma muloqotni tashkil etish, muzokaralar olib borish malakalariga ega bo‘lish kabi zaruriy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozimligi belgilangan.

Yuqorida bayon etilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiya har qanday rahbar, ayniqsa, ta’lim tashkiloti direktori uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalardan bo‘lib, uning tarkibida nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalar, balki shaxsiy sifatlar, muloqot madaniyati, bahs-munozara olib borish, ishontira olish va nizolarni hal qilish kabi muhim jihatlar mujassam. Tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajasi - rahbarning kasbiy samaradorligi, jamoa bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, davlat ta’lim talablari va kasb standartlarida belgilangan mezonlar, ushbu kompetensiyaning amaliyotdagi ahamiyatini yanada oshirib, boshqaruv muloqotini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zaruratini taqozo etadi. Shunday ekan, maktab rahbarlari o‘z kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari lozim.

1.2. Kommunikativ kompetentlikning boshqaruv faoliyatidagi ahamiyati

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlar zamirida nafaqat bilim berish, balki boshqaruv jarayonlarini insoniylik, hamkorlik va ijtimoiy-emotsional yondashuvlar asosida olib borish talabi yotadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, rahbar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biridir.

Kommunikativ kompetensiya zamonaviy maktab rahbarining boshqaruv jarayonidagi asosiy kasbiy fazilatlaridan biri bo‘lib, bu ko‘nikma nafaqat boshqaruv subyektlari o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlaydi, balki jamoa ichida sog‘lom muhit yaratish, nizolarni hal etish, pedagogik hamkorlikni rivojlantirish va o‘zaro ishonchga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetentlik faqat lisoniy bilimlar bilan cheklanmay, balki shaxslararo o‘zaro ta’sir, emotsiyal intellekt va boshqaruv madaniyatini ham o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, umumiyl o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining kommunikativ kompetentligini tizimli tahlil qilish, uning asosiy komponentlari va rivojlanish mezonlarini aniqlash hozirgi bosqichda pedagogik boshqaruv sohasining eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kommunikativ kompetentlik - rahbar kasbiy kompetentligining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u samarali muloqot qilish imkonini beradi va bag‘rikenglik (tolerant) xulq-atvorini namoyon etishga, jamoaviy birdamlikka va kasbiy faoliyat sohasida ham shaxsiy o‘z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini amalga oshirishga yordam beradi. Kommunikativ kompetentlik boshqaruv faoliyatida shaxslararo samarali faoliyat, o‘zaro ta’sirning kuchayishi, jamoada hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashni ta’minlaydi.

Kommunikativ kompetensiya maktab direktorlari uchun - bu boshqaruv jarayonda o‘zaro anglash, o‘zaro tushunish, o‘zaro rivojlanish kabi kasbiy boshqaruv-kommunikativ faoliyat subyektlari sifatida menejerlik faoliyati darajasidir, bu interaktiv-kommunikativ ko‘nikmalar (harakatlar va o‘zaro ta’sirlar) orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda rahbarning kommunikativ kompetensiyasi uning shaxsiy sifati va ijtimoiy psixologik obrazini shakllantiruvchi omil sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, maktab rahbari faqat boshqaruvchilik roli bilan emas, balki faol tinglovchi, mas’uliyatli murojaat qiluvchi, konfliktni boshqara oluvchi va ijtimoiy

jihatdan sadoqatli muloqotchi sifatida ham ko‘zga tashlanadi⁴. Bu o‘z-o‘zini anglash, emotsiyalar nazorat, doimiy teskari aloqani ta’minlay olish kabi ko‘nikmalarda aks etadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan *LifeComp*⁵ (2020) yondashuvida kommunikativ kompetensiya **hayotiy kompetensiya** sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, u ko‘p komponentli struktura asosida tushuntiriladi. Jumladan:

- ❖ **Shaxsiy qobiliyatlar** (o‘z fikrini ifodalash, emotsiyalarni boshqarish);
- ❖ **Shaxslararo ko‘nikmalar** (empatiya, faol tinglash, madaniyatlararo muloqot);
- ❖ **Raqamlı kommunikatsiya madaniyati** (onlayn platformalarda ishonchli muloqot o‘rnatish).

Norvegiyalik olimlar J.Heide va G.Simonson tomonidan ilgari surilgan **kommunikativ yetakchilik** nazariyasida rahbarlar muloqotni boshqaruv vositasi emas, balki jamoaviy madaniyatni shakllantiruvchi asosiy tamoyil deb hisoblashadi. Bu yondashuvda rahbar quyidagi jihatlar orqali baholanadi:

- ❖ axborot shaffofligi;
- ❖ teskari aloqani qo‘llab-quvvatlash;
- ❖ g‘oya va qarorlar almashinuvida ishtirokni rag‘batlantirish;
- ❖ “dialogik yetakchilik”ni amalga oshirish.

Bu nazariyaga ko‘ra, muloqot - rahbarlik siyosatining o‘zagidir.

Tannebaum va Smitlarning ta’kidlashlaricha, o‘quv muassasalarida yuzaga kelgan inqirozli vaziyatlarda rahbarning kommunikativ kompetensiyasi eng muhim omilga aylanadi. Xususan, krizislar (masalan, o‘quvchilarning xavfsizlik muammolari, pandemiylar, texnologik o‘zgarishlar) davrida quyidagilar talab etiladi:

⁴ Hargie & Dickson, Skilled interpersonal communication Research, theory and practice. Fourth edition. 2016 <https://books.google.gm/books?id=TIC6nPuvVY0C&lpg=PP1&hl=ru&pg=PR8#v=twopage&q&f=true>

⁵ Sala, A., Punie, Y., Garkov, V. and Cabrera Giraldez, M., LifeComp: The European Framework for Personal, Social and Learning to Learn Key Competence, EUR 30246 EN, Publications Office of the European Union, Luxembourg, 2020, ISBN 978-92-76-19418-7, doi:10.2760/302967, JRC120911

- ❖ tezkor, aniq, hissiy barqarorlikni ta'minlovchi axborot uzatish;
- ❖ xodimlarga psixologik yordam beruvchi so'z uslubi;
- ❖ turli ijtimoiy guruhlar bilan alohida-alohida kommunikatsiya uslublarini qo'llash.

Bu rahbardan **situatsion kommunikativ moslashuvchanlik** ko'nikmasini talab etadi.

Globallashuv sharoitida maktab direktorlari ko'p madaniyatli guruhlar (masalan, migrantlar farzandlari, turli millat vakillari, ta'limga alohida ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar) bilan ishlashda **madaniyatlararo kommunikatsiyaga** ega bo'lishi zarur. Bu kompetensiyaning asosiy mezonlari:

- ❖ boshqa madaniy qadriyatlarni tushunish va hurmat qilish;
- ❖ tilga bo'lgan sezgirlik (lingvistik empatiya);
- ❖ muloqotdagi noverbal signallarning madaniyatlar bo'yicha turlicha talqin qilinishini anglay olish;
- ❖ nizolarni madaniyatlararo kontekstda tahlil qilish qobiliyati.

Kommunikativ kompetensiyani baholash indikatorlari

So'nggi yondashuvlarda kommunikativ kompetensiya **metrik ko'rsatkichlar** orqali baholanmoqda. Masalan:

- ❖ **Muloqot sifati indeksi** - verbal va noverbal vositalar samaradorligi;
- ❖ **Ishonch koeffitsienti** - jamoaning rahbarga bo'lgan ishonch darajasi;
- ❖ **Faol tinglash darajasi** - rahbarning tinglovchi sifatida samaradorligi;
- ❖ **Teskari aloqa intensivligi** - muloqot jarayonida ishtirokchilarning baholovchi fikr bildirishi chastotasi.

Bu indikatorlar asosida rahbarning kommunikativ salohiyati amaliy jihatdan tahlil qilinishi mumkin.

V.I.Mestechkinning fikriga ko'ra, kommunikativ kompetensiya shaxsiy va umumiylar bilan o'lchanadi, baholanadi va bu mezonlar quyidagicha aniqlanadi:

- maqsadga erishish;

- funksional;
- ijtimoiy-psixologik;
- faoliyatini boshqarish;
- texnologik-boshqaruv;
- kontent-maqsadli natijalarni ta'minlovchi ko'nikmalar (harakatlar va o'zaro ta'sir).


L.A.Petrovska kommunikativ kompetensiyani boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va saqlash qobiliyati deb tushunadi. Y.U.Yemelyanov kommunikativ kompetensiyani holatga moslashuvchanlik va bevosita muloqotdagi verbal va noverbal vositalarni erkin egallash sifatida ta'riflaydi, hamda kommunikativ kompetensianing darajasini muloqotdagi muvaffaqiyat darajasi bilan belgilaydi. Kommunikativ kompetensiyani o'zlashtirishning asosiy manbalari, uning fikricha, hayotiy tajriba, san'at, umumiy va maxsus ilmiy usullar, obrazlar, o'qitish va tushunchalardir.

E.V.Sidorenko ushbu kompetensiyani shunday ta'riflaydi: qobiliyat, bilim sifatida, shu bilan birga, kommunikativ kompetensianing tarkibiy qismlari - kommunikativ qobiliyatlar, kommunikativ mahorat va zarur bilimlar.

V.I.Kabryn o'z tadqiqotlarida insonning muloqot qobiliyati masalasiga murojaat qiladi va uni insoniyatning madaniy-biologik rivojlanishi va insonning psixologik jarayonlari sifatida ko'radi, muloqot qobiliyatini universal rivojlanish omili sifatida ko'radi. U insoniyatning turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarini kompleks tizim sifatida o'rganadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi haqidagi turli yondashuvlarni tahlil qilgan holda, ba'zi olimlar fikricha, kommunikativ kompetensiya uchta asosiy komponentdan iborat: nazariy, amaliy va shaxsiy. Shaxsning xususiyatlarini aniqlashda, kommunikativ kompetensiya motivatsion-mazmunli tuzilmalarga kiradi, bu esa shaxsni yo'naltiruvchi va uning kommunikatsiya sohasidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi. Kommunikativ kompetensiya bu sohada muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lган qobiliyatlarning bir qismi bo'lib, u ijtimoiy va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarurdir.

V.M.Grebennikova rahbarning kommunikativ kompetensiyasining tizimini ta’riflab, bu tizim ma’lum bir malaka talablariga mos kelishini aytadi. Bunga quyidagilar kiradi (1.2.1-rasm):



Shuningdek umumiyl o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining kommunikativ kompetensiyasi haqida mushohada yuritganda quyudagilar tilga olinadi:

- liderning harakatlari sifati, turli tashkilotlar, hokimiyat va boshqaruv, ularning vakillari bilan samarali o‘zaro aloqani ta’minlash;
- ishbilarmonlik yozishmalari ko‘nikmalariga egalik, muzokaralarni amalga oshirish qobiliyati;
- hamkorlikda ta’lim faoliyatini tashkil etishni bilish;
- bag‘rikenglik bilan ish yuritish;
- ziddiyatli vaziyatlarda o‘zini munosib tuta bilish;
- jamoani demokratik boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish faoliyatida ishtirok etishi;
- xodimlar ijtimoiy faoliyati uchun ko‘maklashish;

-o‘zining ilmiy-metodik faoliyati natijalarini taqdim etishni biliшdir.

Kommunikativ kompetensiyani tashkil qiluvchi komponentlar borasida ham turli qarashlar mavjud. Xususan, F.I.Sharkov kommunikativ kompetensyaning asosiy komponenti sifatida faqat bitta parametr - aloqa qilish qobiliyatini belgilaydi.

I.I.Seregin uning ikkita asosiy xususiyatini - “birinchidan, boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati (ijtimoiy), ikkinchidan, semantik ma’lumotlarga ega bo‘lish va ishlash qobiliyati”ni ajratib ko‘rsatadi.

M.A.Vasilik kommunikativ kompetensyaning sakkizta tarkibiy qismini taklif qiladi:

- aloqa normalari va qoidalarini bilish (ishbilarmonlik, kundalik, bayramona va hk);
- nutqni rivojlantirishning yuqori darajasi, bu aloqa jarayonida odamga ma’lumotni erkin yetkazish va idrok etish imkoniyatini beradi;
- noverbal muloqot tilini tushunish;
- ularning jinsi va yoshi, ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda odamlar bilan aloqa qilish qobiliyati;
- vaziyatga yetarlicha munosabatda bo‘lish va o‘zlarining aloqa maqsadlariga erishish uchun uning o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanish qobiliyati;
- suhbatdoshga uni o‘z tomoniga tortib oladigan tarzda ta’sir o’tkazish, suhbatdoshini o‘z dalillari kuchiga ishontirish qobiliyati;
- suhbatdoshni shaxs sifatida, potensial raqib yoki sherik sifatida to‘g‘ri baholash qobiliyati va ushbu baholashga qarab o‘zining kommunikativ strategiyasini tanlash;
- suhbatdoshda o‘z shaxsiyati haqida ijobiy tasavvurni uyg‘otish qobiliyati.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, M.A.Vasilik tomonidan kommunikativ kompetensyaning komponentlariga berilgan taklif eng maqbul tarkib deyish mumkin. Shuningdek unga quyidagilarni qo‘srimcha qilamiz:

-suhbatdoshi so‘zlashuvchi tilda erkin gaplasha olish;

-muloqot mavzusining huquqiy asoslari haqida yetarlicha bilim va ko‘nikmaga (huquqiy ong va huquqiy madaniyat) ega bo‘lish;

-ta’lim tizimiga inklyuziyaning kengroq kirib kelishi sharoitida maxsus ehtiyojlari bo‘lgan shaxslar bilan muloqotga kirisha olish;

-shaxsni kasbiy muloqotga yo‘naltirish (motivatsion komponent);

-aloqa me’yorlari va qoidalarini bilish (kognitiv komponent);

-ko‘nikmalar va kommunikativ ko‘nikmalarga ega bo‘lish (operativ faoliyat komponenti);

-aks ettirish (baholash komponenti) uning rivojlanishining eng muhim shartlari: dialogik muloqotni tashkil etish, o‘z-o‘zini bilish va o‘z-o‘zini yetarli darajada hurmat qilish.

Demak, rahbar kommunikativ kompetensiyasi - bu menedjerning boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish va o‘zaro ta’sir o‘tkazish ko‘nikmalarining kombinatsiyasi bo‘lib, subyektning ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan muloqot o‘rnata olishi, axborotni to‘g‘ri qabul qila olishi va to‘g‘ri yetkaza bilishi, chet tillarida muloqot qila olishi, internet tarmog‘ida muloqotga kirisha olishi kabilarda namoyon bo‘lib, bunda maktab direktorlarining o‘z kommunikativ kompetentligini qanchalik takomillashtirganiligi muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining kommunikativ kompetentligini takomillashtirishda quyidagilarga e’tibor berish talab etiladi:

birinchidan, pedagogik muloqotning xususiyatlarini bilish. Bu bilim bevosita rahbarga taalluqlidir, chunki u muayyan kasbiy sohaga ta’sir qiladi: “rahbar - rahbar xodim”, “rahbar - o‘qituvchi”, “rahbar - o‘quvchi”, “rahbar - ota-onal”, “rahbar - boshqa tashkilot subyektlari” tizimlaridagi o‘zaro ta’sir. Ushbu bilimlar psixologik-pedagogik fanlarning mazmuni bilan belgilanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan ta’minlanishi kerak;

ikkinchidan, turli vaziyatlarda muloqot vositalaridan yetarlicha foydalana bilish;

uchinchidan, vaziyatlarning xususiyatlari va dinamikasiga qarab kommunikativ vositalarni o‘zgartirish qobiliyati;

to ‘rtinchidan, turli vaziyatlarda samarali kommunikativ munosabatlarni qurish qobiliyati. Bu yangi kommunikativ sharoitlarga moslashish qobiliyatini aniqlaydigan va pedagogik mahoratning namoyon bo‘lishi uchun asos bo‘lgan instrumental, tartibga soluvchi ko‘nikmalar;

beshinchidan, o‘qituvchilar, o‘quvchilar bilan oson aloqada bo‘lish, ularni mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati;

oltinchidan, hamkorlikka intilish, boshqariluvchiga, uning faoliyatiga samimiyligini qiziqishning namoyon bo‘lishi (ochiqlik);

yettinchidan, o‘zgaruvchan muloqot sharoitlariga moslasha olish, muammolarni osonlik bilan “ushlab olish”, boshqa nuqtai nazarlarga, pozitsiyalarga bag‘rikenglik, boshqariluvchi vaziyati va hattiharakatlariga turli nuqtai nazardan qarash qobiliyati (moslashuvchanlik);

sakkizinchidan, xulq-atvori, tashqi ko‘rinishi, o‘zini “qo‘llash”, “namoyon eta olish” va “taqdim etish” qobiliyati (hissiy jozibadorlik);

to ‘qqizinchidan, refleksiya - rahbarning o‘zini anglash qobiliyati, o‘z-o‘zini baholash, pedagogik o‘zaro ta’sirning boshqa ishtirokchilarining fikri bilan taqqoslash, ta’lim jarayoni subyektlari munosabatlarini, ularning hissiy reaksiyalarini tushunish va tahlil qilish qobiliyati;

o‘ninchidan, empatiya - hissiy holatni, idrok etilayotgan shaxsning niyatlarini, boshqariluvchi subyektning kechinmalarini idrok etish qobiliyati.

Ushbularni shakllantirish, rahbar faoliyatida mas’uliyatli yondashuvni talab etadi. Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktorining kommunikativ kompetentligi murakkab hodisadir. Bu shaxsning kommunikativ bilim va ko‘nikmalarni, shuningdek, pedagogik sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun shaxsiy fazilatlarini qo‘llashga nazariy va amaliy tayyorligi va qobiliyatining birligini ifodalaydi. Rahbarning kasbiy-maxsus kommunikativ kompetensiyasi ta’lim-tarbiya jarayoni subyektlari bilan pedagogik o‘zaro munosabatlar amaliyotida takomillashadi. Kommunikativ kompetensiya rahbar boshqaruv mahoratining o‘zagi hisoblanadi,

chunki boshqaruv jarayonida ko‘zlangan barcha maqsadlarga kommunikativ kompetensiya orqali erishiladi. U ma’lum bir ilmiy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar tizimidan iborat malakani talab etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumiyl o‘rtalim mактаблari direktorlarining kommunikativ kompetentligini jamoada sog‘lom muhitni yaratishda, xodimlar bilan demokratik aloqalarni ta’minlashda, nizolarni bartaraf etishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, yuqorida tahlil qilingan ilmiy manbalar, xalqaro yondashuvlar va zamonaviy rahbarlik konsepsiyalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiya maktab direktorining kasbiy sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Bu kompetensiya rahbarning nafaqat axborotni to‘g‘ri uzatishi yoki tushuntirishi, balki tinglay olishi, ishonch uyg‘ota olishi, ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv muloqot olib borishi, jamoadagi ijtimoiy-emotsional muhitni sog‘lomlashtira olishi orqali namoyon bo‘ladi.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanganidek, kommunikativ kompetensiya bir necha muhim komponentlardan - shaxslararo aloqalar, empatiya, muloqot strategiyasi, raqamli madaniyat, madaniyatlararo muloqot va refleksiya qobiliyatidan iborat murakkab tizimdir. Rahbar ushbu kompetensiyani o‘z faoliyatida ongli va maqsadli qo‘llagan taqdirdagina jamoaviy birdamlikni ta’minlay oladi va ta’lim sifatini strategik jihatdan boshqarishga erishadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish rahbarning o‘z ustida ishlashi, psixologik tayyorgarligi va axloqiy qadriyatlarni boshqaruvga tatbiq etish ko‘nikmalariga bog‘liq. Bu kompetensiya rahbarni an’anaviy boshqaruvchidan - yetakchilik, hamkorlik, ishonch va ochiqlikka asoslangan ilg‘or ta’lim menejeriga aylantiradi.

II.BOB.

KOMMUNIKATIV STRATEGIYALAR BOSHQARUV VOSITASI SIFATIDA

2.1. Kommunikativ strategiyalarning nazariy asoslari

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri - samarali boshqaruvni ta’minlashdir. Boshqaruv turli xil vazifalarni hal qilish vositasi bo‘lib, boshqaruv faoliyati kommunikativ xarakterga ega. Bu insonlarning hayoti va faoliyatini tartibga solishda yordam beradigan vosita hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zgaruvchan tashkiliy-madaniy muhitda, ta’lim muassasasi rahbarining kommunikativ strategiyalardan ongli foydalanish darajasi - boshqaruv faoliyatining sifati, samaradorligi va insoniylik darajasini belgilab beradi. Chunki strategik muloqot rahbarga jamoada sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, qarorlar qabul qilishda ishtirokni rag‘batlantirish va manfaatdor tomonlar bilan barqaror aloqalarini o‘rnatish imkonini beradi.

Kommunikativ strategiyalar - bu nafaqat axborotni yetkazish vositasi, balki boshqaruv qarorlarini asoslash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga erishish va o‘zgarishlarni samarali boshqarishning funksional mexanizmidir. Shu sababli, ta’lim menejmentida kommunikativ strategiyalarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, ularning tiplari, tamoyillari va amaliy tatbiqlarini aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Rahbarlar tashkilot maqsadlariga erishish uchun qiladigan deyarli barcha harakatlari samarali kommunikatsiyani talab qiladi. Kommunikatsiya - bu murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘plab ketma-ket bosqichlar, protseduralar va harakatlardan iborat. Ushbu jarayon muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun va shaxslar bir-birini tushunib, so‘ngra boshqaruv qarorini samarali amalga oshirishlari uchun silliq kommunikativ mexanizm zarur. Bunda tashkilotga kelib tushayotgan axborotni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash tizimi juda muhimdir. Boshqaruv qarorlari samarali bo‘lishi uchun kommunikativ strategiyalarni to‘g‘ri qo‘llash zarur, bu esa tashkilotni boshqarish funksionalligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Umumiyl shaklda strategiya ketma-ket qadamlar sifatida ifodalanadi:

birinchidan, strategik muammo (vaziyat) mavjudligi, uni tahlil qilish va unga mos maqsad qo‘yish;

ikkinchidan, vaziyatni o‘zgartirish vositasi sifatida konstruksiyalash usuli;

uchinchidan, vaziyatni o‘zgartirish amalga oshiriladigan aprior holatlar aniqlanadi.

Bular aprior funksional (o‘zining strategiya tuzilmasidagi funksiyasi bo‘yicha) bilim va qoidalardir, ular ushbu strategiya doirasida muammoga duch kelinmaydigan, vaziyatdan tashqari bo‘lgan postulatlar, aksiomalar, normalar, qoidalar va printsiplar bo‘lishi mumkin⁶.

V.B.Kashkin kommunikativ strategiyani “kommunikativ xulq-atvor yoki kommunikativ o‘zaro aloqaning bir qismi, unda ma’lum bir kommunikativ maqsadga erishish uchun turli xil verbal va noverbal vositalar qatori qo‘llaniladi”⁷ deb ta’riflaydi. Boshqacha qilib aytganda, kommunikativ strategiya tashkilotda ba‘zi natijalarga erishish zarur bo‘lganda barcha kommunikativ o‘zaro aloqalar sohasini qamrab oladi.

Kommunikativ strategiyalar boshqaruv kommunikativ harakati (BKH) bilan juda o‘xshash: “BKH - bu bиргалидаги фаолият исhtiroychilari xatti-harakatlarini yoki fikrlarini o‘zgartirish uchun boshqaruv tizimida foydalaniladigan verbal va noverbal axborot vositalari kompleksi”⁸. Ushbu ta’rif V.B.Kashkinning ta’rifi bilan deyarli o‘xshashdir. BKHning maqsadi subyektning (kommunikatorning, ta’sir qiluvchi tomonning) ehtiyoj va manfaatlarini qondirishdir. Y.Habermas kommunikativ harakat nazariyasini tasvirlab, BKH o‘zaro tushunishga, boshqaruv tizimidagi faoliyat ko‘rsatuvchi

⁶ Никитаев В.В. О техническом и гуманитарном знании в инженерной деятельности // Высшее образование в России. 1996. № 2. С. 87–96

⁷ Кашкин В.Б. Введение в теорию коммуникации. Воронеж: Изд-во ВГТУ, 2000. 175 с.

⁸ В.А.Шилова, Д.А.Угринович Классификации коммуникативных стратегий в процессе реализации управлеченческих решений // Социологическая наука и социальная практика № 4(24), 2018.84-94

DOI: 10.19181/snsp.2018.6.4.6086

subyektlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga qaratilganligini ta’kidlaydi. BKH buyruq, ishontirish, ko‘ndirish, emotsiyal ta’sir kabi turli shakllarda ifodalanishi mumkin. F.Znanecki harakat turlarini ikkita guruhga bo‘ladi: moslashish (ishchi qimmat va imkoniyatlaridan foydalanish) va oppozitsiya (tahdid va repressiyalarni qo‘llash). Harakatning mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: reproduktiv harakatlar (an’anaga rioya qilish); ijtimoiy inkor harakatlari (tanqid); ijtimoiy ijod harakatlari (ratsionalizatsiya).⁹

Kommunikativ strategiyalarning tasniflari va tipologiyalari

Ayni paytda ilmiy jamoatchilikda kommunikativ strategiya tushunchasining yagona umumqabul qilingan ta’rifi mavjud emas, mualliflarning alohida kommunikativ strategiyalari tipologiyalari prinsipial jihatdan bir-biridan farq qiladi va turli xil tasnifiy asoslarga ega. V.A.Shilova tomonidan boshqaruv strategiyasiga keng ta’rif berilgan bo‘lib, u chuqur axloqiy qadriyatlarni, an’analar va kommunikativ afzalliklarni o‘z ichiga olgan boshqaruv tamoyillaridan iborat deydi va kommunikativ strategiyalar boshqaruv strategiyalarining tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlaydi.


B. van Ruler jamoatchilik bilan aloqalar amaliyotini ko‘rib chiqishda kommunikatsion panjara tuzib, kommunikatsiyalarni tiplashtirdi. U “to‘rt asosiy kommunikativ strategiyalardan iborat model (2.1.1-rasm) ni taklif qilgan, ular bir tomonlama yoki ikki tomonlama axborot harakatiga mos keladi, kutilayotgan natijaga ko‘ra esa - xabarning asl shaklida qabul qilinishiga (ochiqlik) yoki bilim, nuqtai nazar va xulq-atvorga qaratilgan ta’sirga asoslangan.¹⁰

⁹ O‘sha joyda

¹⁰ Кравец М. А. Коммуникативная стратегия: систематизация определений, подходы к разработке // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Экономика и управление. 2013. № 1. С. 149–153.



S.A.Datsyuk uch turdag'i strategiyalarni ajratadi (2.1.2-rasm):



- prezentatsion tur passiv kommunikatsiya hisoblanadi;
- manipulyativ tur faol kommunikatsiya hisoblanadi;
- konventional tur esa interaktiv kommunikatsiya hisoblanadi.

Shuningdek, asosiy vositalar quyidagilardir: prezentatsiya uchun – ma'lumot, manipulyatsiya uchun - xabar, konvensiya uchun – dialog.¹¹

Umumiylar kommunikativ strategiyalar tasnifi, bu tasnif qanday asosda amalga oshirilganiga bogliq. Funksional nuqtai nazardan asosiy (semantik, kognitiv) va yordamchi strategiyalarni ajratish mumkin.

¹¹ Дацюк С. А. Коммуникационные стратегии [Электронный ресурс] // Центр гуманитарных технологий. 1999. URL: <https://gtmarket.ru/laboratory/expertize/2006/2751> (Дата обращения: 19.05.2018).

Asosiy strategiya deb, motivlari va maqsadlari bo‘yicha muhimroq bo‘lgan strategiya ataladi. Ko‘pgina hollarda ular bevosita qabul qiluvchiga, uning qadriyatlar tizimiga, munosabatlariga va xattiharakatlariga ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq. Xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi strategiyalar orasida bo‘ysunish (iltimos, buyruq, ishontirish), maslahat, ogohlantirish, tahdid va boshqalar kabi nutqiy taktikalar kiradi. Qadriyatlar shkalasiga ta’sir ko‘rsatish ayblash va oqlash, tanbeh, masxara, diskreditatsiya va boshqalar kabi nutqiy taktikalar orqali amalga oshiriladi. Issers ushbu taktikalarni reklama, tarbiya va ta’limda keng qo‘llash mumkinligini qayd etadi.

Yordamchi strategiyalar dialogli o‘zaro ta’sirni samarali tashkil etishga, qabul qiluvchiga optimal ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi. Bu yerda kommunikativ vaziyatning barcha komponentlari: kommunikator, kommunikant, aloqa kanali, kontekst muhimdir. Shu munosabat bilan o‘z-o‘zini taqdim etish strategiyasi, maqom va rollar strategiyasi, hissiy moslashuv strategiyalari va boshqalarni topish mumkin. Ko‘rib chiqilgan turlar pragmatik (kommunikativ-vaziyatli) strategiyalarga kiritilishi mumkin. Shuningdek, muallif yordamchi strategiyalar sifatida “dialogni tashkil etish bo‘yicha nazorat vazifalariga mos ravishda qo‘llaniladigan dialog strategiyalarini” ham ajratadi.¹²

M.A.Kravets S.Fergyusson, J.Kornelissen, L. van Germert, E.Vudstra, E.S.Surovtseva tomonidan tashkilot kommunikatsiyalarini strategik rejalshtirishga bag‘ishlangan ishlarni tahlil qildi va kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqishga turli xil yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlay oldi.

Ushbu mualliflar tomonidan kommunikativ yo‘naltirilganlik bo‘yicha strategiyalar quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) maqsadli auditoriyalarni xabardor qilish va ishontirish (S.Fergyusson, L. van Germert, E.Vudstra);
- 2) manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish (J.Kornelissen);

¹² Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. Коммуникативные стратегии и тактики в русской речи. М.: Изд-во ЛКИ, 2008. 288 с.

3) tashkilot kommunikatsiyalarini rivojlantirish (E.S.Surovtseva).¹³

N.N.Kirillova kommunikativ strategiyalar va taktikalarga axloqiy kategoriylar nuqtai nazaridan yondashadi va kommunikativ strategiyalarni qoidalar, qadriyatlari va axloqiy tamoyillari asosida tasniflaydi. Shu bilan birga, ularning nutqiy vaziyatlarda amalga oshirilishini hisobga oladi. Muallif kommunikativ va nutqiy strategiya tushunchalarini aniq farqlaydi va “nutqiy strategiya (kommunikativ strategiyadan farqli o’laroq) - torroq tushuncha. U kommunikativ strategiyani aniq muloqot vaziyatida amalga oshiradi”¹⁴ deb ta’kidlaydi.

G.P.Graysning postulatlariga (miqdor, sifat va munosabat postulatlari) tayanib, Kirillova hozirda an’anaviy bo‘lib qolgan kooperativ strategiyalarni yoki kommunikativ hamkorlikni va kooperativ bo‘lmagan strategiyalarni, ya’ni “muloqotning nutqiy qoidalarini - do’stona hamkorlik, samimiylilik, “ishonch kodeksi”ga rioya qilishni buzish asosida qurilgan dialoglar”ni ajratib ko‘rsatgan. Muallif fikriga ko‘ra, hamkorlik strategiyalari eng samarali hisoblanadi, chunki bunday o‘zaro ta’sirda muloqotning ikkala tomoni ham foyda ko‘radi: hamkorlar bilan kelishuvga erishish kafolatlanadi. Ammo obyektiv reallikda kooperativ bo‘lmagan strategiyalardan qochish mumkin emas, shuning uchun Kirillova har ikkala yo‘nalish uchun strategiyalarni ajratdi.

2.1.1-jadval. Kooperativ va kooperativ bo‘lmagan kommunikativ strategiyalarining xususiyatlari (N.N.Kirillovaga ko‘ra).

Kooperativ (hamkorlik) sstrategiyalari	Konfrontatsiya strategiyalari
Xushmuomalalik, samimiylilik va ishonch	Diskreditatsiya, bo‘ysundirish Zo‘ravonlik, tajovuz

¹³ Кравец М.А. Коммуникативная стратегия: систематизация определений, подходы к разработке. Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Экономика и управление. 2013. № 1. С. 149-153.

¹⁴ Кириллова Н.Н. Коммуникативные стратегии и тактики с позиции моральных категорий. Вестник НГТУ им. Р.Е. Алексеева. Серия: Управление в социальных системах. Коммуникативные технологии. 2012. № 1. С. 26—33.

Yaqinlik (ochiq muloqot) Tanlovdan voz kechish (tashabbusni sherikka berish) Chekinish (sabrli bo‘lish, o‘ta faol bo‘lmaslik) Hamkorlik, murosaga kelish	Tashabbusni qo‘lga olish, vaziyatni nazorat qilish Majburlash, qayta ishlash Raqobat, mojaro Fosh qilish, da’vo qilish, tahdid qilish
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

O.V.Astashina fikriga ko‘ra, tashkilotning ichki muhitida qo‘llaniladigan hamkorlik strategiyasi shaxsni kompaniyada sodir bo‘layotgan voqealar va uning maqsadlarga erishishga aloqadorligi haqida to‘liq va ishonchli xabardor qilish uchun ishlatiladi. Ushbu maqsadlarning ochiqligi va shaffofligi xodimning ishonchi va motivatsiyasini kafolatlaydi, shuning uchun, odatda, ishontirish taktikasi qo‘llaniladi. Bu adekvat teskari aloqani ta’minlaydi, ya’ni vertikal kommunikatsiya oqimlari (pastdan yuqoriga) yanada obyektiv va ishonchli bo‘lib, ishonch darajasini oshiradi.

Konfrontatsiya kommunikativ strategiyalari asosan avtoritar modelga, tashabbuskorning xodimlarni o‘ziga bo‘ysundirish va tashkilotda aniq ierarxiya yaratishga intilishiga asoslanadi. Ular muloqot jarayonida mavzuni, tashabbusni va tushunish darajasini monitoring qilish uchun ishlatiladi. Yana bir tur - ritorik strategiyalar mavjud. Ushbu strategiyalar doirasida turli notiqlik san’ati usullari va kommunikant (obyekt)ga samarali ta’sir ko‘rsatish texnikasi qo‘llaniladi.

Demak, bugungi tezkor o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy sharoitda ta’lim tashkilotlari rahbarlari uchun kommunikatsiya oddiy axborot almashinuvi emas, balki strategik boshqaruv vositasiga aylangan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarlar muloqotni qanday tashkil etishlari tashkilot ichki muhitining sog‘lomligi, qarorlarning qanday qabul qilinishi va ularning bajarilishi darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, **kommunikativ strategiyalar - rahbarlik faoliyatining muvofiqlashtiruvchi va ta’sirchan elementidir.**

Strategik muloqot: Oddiy aloqa emas, balki boshqaruv konsepsiyası

Kommunikativ strategiyalarni faqatgina texnik muloqot vositasi sifatida emas, balki rahbarlik konsepsiyasining yadrosi sifatida ko‘rish zarur. Mazkur yondashuv kommunikatsiyani tashkilotdagi barcha harakatlar va qarorlar bilan bog‘laydi. Kirk Hallahan, Betteke van Ruler, Derine R. Xoltsxauzen, Deyan Verchichlarning Strategic Communication Management modeli¹⁵ga ko‘ra, har bir strategik aloqa:

- ❖ tashqi va ichki manfaatdor tomonlarni belgilaydi;
- ❖ maqsadli xabarlarga asoslanadi;
- ❖ ijtimoiy kapital va ishonchni oshirishga qaratiladi.

Shu sababli, rahbar kommunikatsiyani boshqaruvni, mustahkamlovchi ijtimoiy vosita sifatida ko‘rishi lozim.

Kommunikativ qarama-qarshiliklar: strategik yondashuvning sinov nuqtasi

Maktab direktorining kommunikativ strategiyalarni to‘g‘ri tanlashi ayniqsa nizoli vaziyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Thomas-Kilmannning Conflict mode instrument¹⁶ yondashuvi asosida shuni aytish mumkinki, konfliktni vaziyatlarda kommunikatsiya orqali quyidagi strategiyalar qo‘llaniladi:

- ❖ murosa asosidagi dialog;
- ❖ ehtiyyotkorlik bilan chekinish;
- ❖ samarali qarama-qarshi fikrni muvozanatlash;
- ❖ avtoritar tazyiq o‘rniga raqobatli, lekin madaniyatli muloqot;
- ❖ ishonchga asoslangan yetakchilik orqali hamkorlik.

Bu strategik yondashuvlar pedagogik jamoa ichidagi ijtimoiy muvozanatni tiklashga xizmat qiladi.

Raqamlı transformatsiya davrida kommunikativ strategiyalar

¹⁵ Kirk Hallahan, Betteke van Ruler, Derina R. Holtzhausen, Dejan Verchich. Defining Strategic Communication [International Journal of Strategic Communication](#) 1(1):3-35. March 2007. DOI:[10.1080/15531180701285244](https://doi.org/10.1080/15531180701285244)

¹⁶ Kenneth W Thomas- Ralph H.Kilmann conflict MODE instrument. January 1976 <https://www.researchgate.net/publication/265565339> DOI: 10.1037/t02326-000

Zamonaviy ta'lif menejmentini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etish mushkul. Bu o'zgarishlar rahbarlardan raqamli kommunikatsion kompetensiyani talab qiladi. UNESCO tomonidan e'lon qilingan *Digital competence framework for educators* asosida rahbarlar quyidagi raqamli strategik muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur:

- ❖ axborot shaffofligini ta'minlash;
- ❖ raqamli platformalarda muvozanatli va madaniyatli yozishmalarni yuritish;
- ❖ onlayn maslahatlar, videoanjumanlar, masofaviy qaror muhokamalarini strategik boshqarish;
- ❖ raqamli teskari aloqani tashkil etish;
- ❖ ijtimoiy tarmoqlarda tashkilot obro'sini saqlash.

Demak, raqamli kommunikatsiyaga strategik yondashuv - zamonaviy rahbarlikning ajralmas qismidir.

Madaniyatlararo va ijtimoiy jihatdan sezgir kommunikatsiya

Bugungi maktablarda o'zaro farqli ijtimoiy qatlamlar, millat va e'tiqod vakillari, ta'limga alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishslash zaruriyati kuchaygan. Shu sababli kommunikativ strategiyalar madaniyatlararo kompetensiyani ham o'z ichiga olishi zarur. Ting-Toomey tomonidan ilgari surilgan *Cultural dimensions of communication* modeli¹⁷ga ko'ra, rahbar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- ❖ til va nutqdagi madaniy sezgirlik;
- ❖ muloqotda diskriminatsion ifodalardan tiyilish;
- ❖ madaniy qadriyatlarni tan olish va hurmat qilish;
- ❖ empatiyani muloqotga ongli tatbiq etish.

Bunday strategik madaniyatlararo muloqot ijtimoiy barqarorlik va inklyuziv muhitning kafolati bo'la oladi.

Emotsional intellekt va kommunikativ yetakchilik

¹⁷ Ting-Toomey, S. (1999) Communicating across Cultures. The Guilford Press, New York, 261.

Daniel Golemanning emotsional intellekt nazariyasi rahbarlikda kommunikatsiyaning chuqur psixologik jihatlarini yoritib beradi. Uning modelida samarali rahbarlikning 80% muvaffaqiyati emotsional intellekt bilan bog‘liq deb ta’kidlanadi. Shu asosda quyidagi emotsional-kommunikativ strategiyalar ajratiladi:

- ❖ empatik tinglash va aks ettirish;
- ❖ hissiy salbiy holatni boshqarish;
- ❖ qaror qabul qilishda hissiy muvozanatni saqlash;
- ❖ motivatsion muloqot.

Shunday qilib, maktab direktorining kommunikativ strategiyasi shunchaki aloqa vositasi emas, balki yetakchilik psixologiyasi, madaniyatlararo sezgirlik, raqamli kompetensiya va nizolarni boshqarish mahoratining sintezidir.

Tadqiqotchilar tomonidan kommunikativ strategiyani tasniflashga quyidagi asoslarga ajratish mumkin:

- ❖ kommunikativ strategiyaning ko‘lami (bir shaxsga, guruhga, ommaga yo‘naltirilgan);
- ❖ darajasi (umumiyligiga va xususiy);
- ❖ funksional nuqtai nazaridan (asosiy, semantik, kognitiv va yordamchi strategiyalar);
- ❖ ma’lumotlar oqimining xarakteri (ma’lumot berish, rozilik, ishontirish, dialog);
- ❖ kommunikativ yo‘nalish (maqsadli auditoriyalarni ma’lumot bilan ta’minalash va ishontirish, manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqa, tashkiliy kommunikatsiyalarni rivojlantirish);
- ❖ kommunikatsiya turi (passiv, aktiv, interaktiv);
- ❖ hissiy yo‘nalish (ijobiyligiga, neytralligiga, salbiy);
- ❖ kommunikativ munosabatlar xarakteri (manipulyativ, prezentatsion, konventsional (dialogik));
- ❖ boshqaruv aloqalari xarakteri (subyekt-obyektlisi, subyekt-subyektlisi);
- ❖ instrumental yo‘nalish (bilim, pozitsionlash, boshqarish);
- ❖ axloqiy kategoriylar nuqtai nazaridan (hamkorlik va konfrontatsiya).

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ strategiyalar umumiyligi o‘rtalim muktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishida hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular rahbarning muloqotda egallagan pozitsiyasi, jamoa bilan munosabati, qarorlarni taqdim etishi va muammolarni hal qilishi bilan uzviy bog‘liq. Turli tasniflar orqali ularning mohiyati - axborotni boshqarish, ishonchli sheriklik, konfliktni bartaraf etish va emotsiyonal muvozanatni saqlash kabi funksiyalar bilan to‘ldiriladi.

Strategik muloqot uslublarini chuqur o‘zlashtirgan muktab direktori nafaqat samarali boshqaruvchi, balki jamoada ishonch va motivatsiya uyg‘ota oladigan yetakchiga aylanadi. Shu bois, kommunikativ strategiyalarni chuqur o‘rganish, ularni zamonaviy boshqaruvga integratsiya qilish va kontekstual moslashuvchanlikni ta’minlash bugungi ta’lim menejmentining ustuvor vazifalaridandir.

2.2. Kommunikativ strategiyalar rahbar va jamoa o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etish vositasi sifatida

Modernizatsiyalashayotgan ta’lim tizimi tezkor axborot almashinushi, hamkorlikda faoliyat yuritish va ishonchli ijtimoiy munosabatlarga asoslangan boshqaruv yondashuvlarini talab etmoqda. Bu jarayonda muktab direktorlari zimmasiga faqat ma’muriy boshqaruv emas, balki kommunikativ rahbarlik vazifasi ham yuklanadi. Boshqaruv samaradorligi, avvalo, rahbar va jamoa o‘rtasidagi sog‘lom, ochiq, maqsadli muloqotni tashkil eta olish qobiliyatiga bog‘liq. Shu bois, kommunikativ strategiyalarni o‘rganish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylanmoqda.

Muktab direktori kommunikativ kompetentligi rahbarning muhim kompetensiyalaridan biri bo‘lib, u kommunikativ strategiyalar va taktikalarning qo‘llanilishini o‘z ichiga oladi. Bu strategiyalar rahbarga muloqot jarayonida suhbатdoshda kerakli reaksiyani qo‘zg‘atishga yordam beradi, masalan, takliflar va dalillarga rozilik bildirishi, shuningdek, hozirgi paytda eng istalgan harakatni amalga oshirishga undaydi.

Agar kommunikativ strategiya umumiylashtirilgan kelishilgan kommunikativ xatti-harakatlar sxemasi sifatida aniqlansa, bunda turli xil verbal va noverbal vositalar maqsadga yerishish uchun, ya’ni maqsadga undash uchun ishlataladi, unda kommunikativ taktika strategiyani amalga oshirish usuli sifatida, rahbarning amaliy kommunikativ harakatlari majmui sifatida qaraladi.

Kommunikativ kompetentlik rahbarning shaxsiy kommunikativ xususiyatlarining umumlashtirilgan shakli bo‘lib, unga kommunikativ qobiliyatlar, bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, shuningdek, faoliyatidagi hissiy va ijtimoiy tajriba kiradi. Kommunikativ kompetentlik quyidagi qibiliyatlar majmuasidan iborat (2.2.1-jadval):

2.2.1-jadval. Kommunikativ qobiliyatlar

Qobiliyat	Tavsif
Kommunikativ-diagnoz qobiliyati	Menejerning duch kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-psixologik va boshqa qarama-qarshiliklarni aniqlash.
Kommunikativ-bashorat qobiliyati	Kommunikatsiya jarayonini o‘ziga xos kommunikativ vaziyatni hisobga olgan holda baholash.
Kommunikativ-dasturlash qobiliyati	Muloqot dasturini tayyorlash, uslub, pozitsiya va muloqot masofasini tanlash.
Kommunikativ-tashkiliy qobiliyat	Suhbatdoshning diqqatini va muloqot jarayonini boshqarish qobiliyati va boshqalar.
Kommunikativ-ijro qobiliyati	Muloqot jarayonining o‘zi bo‘lib, maqsadi suhbatdoshni oz fikrini qabul qilishiga erishish

Kommunikativ strategiya va taktika tanlovi muloqot jarayonini rejallashtirish bosqichida amalga oshiriladi va quyidagi parametrlar asosida tanlanadi:

- Kommunikativ vaziyat haqidagi umumiylar bilimlar, ma'lum bir strategiya va taktikaning aniq vaziyatda to'g'riligi baholanishi;
- Kommunikatsiya jarayoni haqidagi bilimlar, ya'ni kelajakdagagi kommunikativ aktni rahbarning ilgari o'z tajribasida mavjud bo'lgan avvalgi kommunikatsion amallar bilan solishtirish, bu esa strategiya va taktika tanlashni yengillashtirishi mumkin;
- Suhbatdosh haqidagi bilimlar, ya'ni shaxs sifatida va hamkor sifatida suhbatdoshni o'rganish, masalan, uning statusi, shaxsiy xususiyatlari, axloqiy-yetuklik va qadriyatlar tizimi.

Agar tashkilot o'z oldiga katta kommunikatsion maqsadlar qo'ysa (turli ijtimoiy guruhlar va tashkiliy tuzilmalar bilan hamkorlik va o'zaro tushunishni ta'minlash) unda kommunikatsiya siyosatini ishlab chiqish zarur.

Kommunikatsiya siyosati kommunikatsiyaning maqsadlarini aniqlash, ularga erishish yo'llarini belgilash, turli auditoriyalarga tarqatiladigan axborot mazmunini va teskari aloqani rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Kommunikatsiya siyosati:

- ❖ Kommunikatsiya muammolarini vaqtida aniqlash va hal qilish imkonini yaratish;
- ❖ Chiqadigan axborotni boshqarilishini ta'minlash;
- ❖ Kommunikatsiyaning maqsadlarini ratsional tanlash, ommaviy auditoriyalarga emas, balki maxsuslashtirilgan auditoriyalarga yo'naltirish;
- ❖ Kommunikatsiyalarning samaradorligini oshirish uchun yuqori darajadagi teskari aloqani ta'minlash maqsadida olib boriladi.

Komunikatsiya muammolari odatda ikki holatda tilga olinadi:

- Agar adekvat axborot olish va tarqatish imkonи buzilgan bo'lsa;
- Agar axborotni uzatish va olishda hamma narsa to'g'ri bo'lsa, lekin kerakli auditoriyalar bilan aloqalar o'rnatilmagan yoki samarasi sezilmasa.

Komunikatsiya muammolarini aniqlash tashkilotning ichki va tashqi muhitiga oid axborotni to'plashdan boshlanadi. Xodimlar, tuzilma, texnologiyalar, maqsadlar va vazifalar haqidagi axborot uning

ichki muhitining holati (masalan, tashkilot ichidagi munosabatlar madaniyati) haqida tasavvur beradi.

Tashqi muhitdan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy vaziyat, shuningdek, asosiy kontakt auditoriyalari bilan o‘zaro aloqalar holati - ota-onalar, jamoat harakatlari, huquqni muhofaza qilish organlari, tibbiyot muassasalari, mahalliy hokimiyatlar, matbuot, aholi va hokazo haqida axborot olinadi. Bularning barchasi tashkilotning jamoatchiligini tashkil etuvchi kontakt auditoriyalaridir.

Shundan so‘ng, to‘plangan barcha axborot tahlil qilinadi, tashqi va ichki muhitdagi tanqidiy omillar aniqlanadi. Tahlil asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi va ular tashkilotning kommunikatsiya siyosatining asosini tashkil etadi.

Kommunikatsiya siyosatini amalga oshirish kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi, bu esa korporativ jamoatchilikning missiyasini ta’minlash uchun shakllantiriladi va bu missiya ta’lim xizmatini ko‘rsatish faoliyatning ijtimoiy konsepsiyasini aks ettiradi. Korporativ missiyani tushunish barcha kommunikatsiya tadbirlarining asosini tashkil etadi, ular tashkilot ichida ham, tashqarisida ham amalga oshiriladi.


Birinchi holatda, jamoa missiyani har bir xodimga yetkazish, faoliyat maqsadlarini yaxshiroq va to‘g‘riroq tushunishga yordam beradi. Ikkinci holatda esa, bu ma’lumotni ota-onalarga, keng jamoatchulikka yetkazishni ta’minlaydi. Shunday qilib, tashkilotning kommunikatsiya strategiyasining kamida ikki yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ular ikki funksional strategiyadan iborat: ichki va tashqi.

Ichki kommunikatsiya asosan ideologik va tashkiliy vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, tashkilot missiyasini ishlab chiqish va targ‘ib qilish, tashkiliy qadriyatlar va xulq-atvor namunalarini shakllantirish, korporativ madaniyat, xodimlarni ruhlantirish bilan bog‘liqdir. Ichki kommunikatsiyaning maqsadlariga xodimlarning norasmiy muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, jamoaviy ongni ishlab chiqish, tashkilotning barqaror holatini saqlash, zarur bo‘lsa, yangiliklar va tashkiliy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash kiradi.

Tashqi kommunikatsiya strategiyasi odatda murakkabroq tuzilishga ega bo‘lib, bir nechta funksional strategiyalardan iboratdir. Ta’lim tashkiloti missiyasi, shuningdek, ta’lim sifati samaradorligini oshirish amaliyoti har kuni ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, jamoatchilik vakillari va boshqalar bilan muntazam aloqalarni ta’minlashni talab qiladi. Tashkilotning samarali kommunikatsion ta’minlanishi har bir aloqa auditoriyasi uchun o‘zining aniq kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi, bu strategiya esa tashkilot manfaatlari obyektiga aylanadi. Shundan ta’lim tashkilotning asosiy kommunikatsiya strategiyasi shakllanadi.

Albatta, ta’lim tashkilotning kommunikatsiya siyosati faqat kommunikatsiyalarni rejalashtirishdan kengroq bo‘lib, uning shakllanishi jamiyatning umumiy missiyasini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu amalga oshiriladigan faoliyat konsepsiyasini aks ettiradi. Tashkilot ichida ham, tashqarisida ham amalga oshiriladigan kommunikatsiya tadbirlari tashkilot missiyani tushunishga asoslanadi. Ta’lim tashkiloti missiyasining mohiyatini har bir pedagog-xodimga yetkazish tashkilotning maqsadlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi, tashqarida esa tashkilot missiyani targ‘ib qilish ota-onalar, jamoatchilik vakillarini ijtimoiy jihatdan maqbul axborot bilan ta’minlaydi.


2.2.1-rasm. Kommunikatsiya siyosatini shakllantirish



Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lim tashkilotning muvaffaqiyati aksariyat hollarda tashqi muhit bilan, xususan, uning eng faol komponentlari bilan konstruktiv aloqalar o'rnatishiga ham bog'liq. Tashqi muhit komponenti bo'lgan kontakt auditoriyalari, ya'ni tashkilotning xizmatlariga real yoki potentsial qiziqish bildiradigan yoki maqsadlarga erishishda ta'sir ko'rsatadigan har qanday guruhlardir. Shunga ko'ra, aloqa auditoriyalari tashkilotning normal faoliyatiga yordam berishi yoki aksincha, unga to'sqinlik qilishi mumkin.

F.Kotler tomonidan tashkilotning muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi kontakt auditoriyalari uch turga bo'lingan (2.2.2-rasm):

2.2.2-rasm. Kontakt auditoriyalar



❖ **Ijobiy auditoriyalar:** Bu auditoriyalar tashkilotga ijobiy qiziqish bildirishadi (masalan, homiyalar, investorlar);

❖ **Kerakli auditoriyalar:** Tashkilotning o'zi qiziqish bildirgan auditoriyalar (masalan, ota-onalar, ijobiy fikrda bo'lgan ommaviy axborot vositalari, sarmoyadorlar);

❖ **Nojo'ya auditoriyalar:** Tashkilotning o'ziga e'tiborini jalg qilishni xohlamaydigan auditoriyalar.

Shunday qilib, xodimlarning axborotga ega bo'lish darajasi, ularning talab va kutganlari, shuningdek, ularning holati va statusi haqidagi axborot, har qanday maqsadli guruh bilan kommunikatsiyani rejalashtirish uchun asos bo'ladi. Har bir aniq vaziyatda maqsadli guruhlarni aniqlashda, shuningdek, ularning faoliyat darajasini ham inobatga olish kerak, bu daraja ko'pincha ularning ehtiyojlari cheklanganligi sababli muammoli vaziyatga jalg qilinganlikka

proporsionaldir. Samarali kommunikatsiya amalga oshirilishi uchun sifatli teskari aloqani o‘rnatish muhim hisoblanadi.

Teskari aloqa, xabarlar uchun reaksiyalar sifatida, maxsus tadqiqotlar yordamida o‘lchanishi mumkin:


- **Sotsiologik (rasmiy) tadqiqotlar:** so‘rovlari, anketalar, intervylar, fokus-guruqlar va boshqalar;

- **Norasmiy (kontent-analiz, faktlar, materiallar va boshqalar).**

Ichki kommunikatsiyalarning maqsadi tashkilotning o‘z xodimlari tomonidan uning vazifalari va maqsadlarini tushunish va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashdan iborat bo‘lib, bu esa uning ish faoliyatini samarali qilishga yordam beradi. Shunday qilib, xodimlar tomonidan ichki axborotni noto‘g‘ri tushunish yoki uning yetishmasligi - bu ichki kommunikatsiyalar sohasida samarali boshqaruvning yo‘qligi natijasidir.

Kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni uchta yirik blokda ko‘rsatilishi mumkin: kommunikativ makon, kommunikatsiyani modellashtirish, kommunikatsiya strategiyasini amalga oshirish (2.2.3-rasm).

2.2.3-rasm. Kommunikatsiya strategiyasini amalga oshirish jarayoni



Kommunikativ makon - bu maktabda rahbar, pedagoglar, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida o‘zar hamkorlik, ochiqlik va ishonchga asoslangan muloqot muhitidir.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishonchli kommunikativ makon boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bu matabda ochiq eshiklar siyosatini joriy etish, pedagoglar o'rtasida erkin fikr almashinuv platformalarini tashkil etish, o'quvchilar kengashlari va ota-onalar qo'mitalarini faol jalb etish asosida yaratiladi.

Kommunikatsiyani modellashtirish bosqichida rahbar maqsadli auditoriya ehtiyojlarini tahlil qiladi va kommunikatsion modelni ishlab chiqadi. Ta'lif menejmenti nazariyalariga ko'ra, muloqot modelini to'g'ri shakllantirish boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu modelda pedagoglar va ota-onalar ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha muntazam so'rovnomalar o'tkazilish, axborot almashishning turli kanallarini (yig'ilishlar, elektron platformalar, rasmiy ijtimoiy tarmoqlar) uyg'unlashtirish, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik doirasida strategik rejallashtirish yig'ilishlarini tashkil etish kabilar ifodalanadi. Kommunikatsiya strategiyasini amalga oshirish bosqichida rejallashtirilgan kommunikativ model amalda qo'llanadi. Bunda interaktiv kommunikatsiya boshqaruv jarayonida ishtirokchilarning faolligini oshirishga yordam beradi. Bu pedagogik kengashlarni muhokama va tahlilga asoslangan formatda o'tkazish, ota-onalar uchun onlayn vebinarlar tashkil etish, o'qituvchilar bilan tezkor axborot almashish uchun raqamlı platformalardan foydalanish, "Fikrlar qutisi" orqali o'quvchilar takliflarini yig'ish asosida amalga oshiriladi.

Kommunikatsiya natijalarini baholash bosqichida rahbar amalga oshirilgan kommunikativ strategiya samaradorligini baholaydi. Zero, muloqot natijalarini tizimli monitoring qilish boshqaruv sifatini oshirishning asosiy shartidir. Bunday baholash ichki anonim so'rovnomalar yordamida muloqot sifatini o'lchash, ota-onalar va o'qituvchilar bilan muntazam teskari aloqa tizimini yo'lga qo'yish, choraklik hisobotlarda kommunikatsiya samaradorligi bo'yicha tahlillar kiritish kabi harakatlarda namoyon bo'ladi.

Rejallashtirilgan natijalarga erishish uchun baholash natijalariga ko'ra yangi kommunikativ strategiyalar ishlab chiqiladi va mavjud tizim takomillashtiriladi. Zero, uzluksiz rivojlanish tamoyili boshqaruvda

samaradorlikni doimiy oshirishga xizmat qiladi. Bu yig‘ilishlarni interaktiv formatga o‘tkazish, ota-onalar bilan elektron muloqotni kuchaytirish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish dasturlarini joriy etish, har yili “Kommunikativ strategiyani takomillashtirish rejası”ni ishlab chiqish kabilarni o‘z ichiga oladi.

2.2.4-rasm. Kommunikatsiya strategiya tuzilmasi

Kommunikativ strategiya tuzilmasi



Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan maktab direktorining kommunikativ strategiyani to‘g‘ri tanlashi va samarali qo‘llay olishiga bog‘liq. Demak, zamonaviy maktab direktoridan nafaqat boshqaruv ko‘nikmalari, balki ijtimoiy-psixologik muhitni barqaror ushlab turuvchi samarali kommunikatsion yondashuvlar ham talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, kommunikatsiyani boshqarish bo‘yicha aniq metodik yondashuvlarning mavjudligi rahbarning faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Strategik maqsadni aniqlash har qanday tashkilotda bo‘lgani kabi ta’lim tashkilotining ham kommunikativ strategiyasi tuzilmasidagi birinchi elementdir. Keyingi element tashkilot ichidagi kommunikatsiya siyosatini tahlil qilish, mavjud kommunikatsiya yondashuvlariga oid audit va jamoatchilikning kommunikatsiya siyosatini baholash bilan bog‘liq. Samarali kommunikatsiya siyosati tashkilotning umumiy boshqaruv tizimini kuchaytiradi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Kommunikatsiya audit - bu tashkilotning kommunikatsion faoliyatini hujjatlashtirilgan tarzda tahlil qilish bo'lib, u tashkilotning maqsadli auditoriyalar bilan muloqotining sifatini tekshirishga imkon beradi (ichki va tashqi auditoriyalar bo'yicha ajratiladi).

Kommunikatsiya audit maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Tashkilotning ichki va tashqi jamoatchilik bilan aloqalar holatini tahlil qilish;
- Rasmiy kommunikatsiya kanallarining sifatini baholash;
- Ichki rasmiy va norasmiy kommunikatsiya kanallarining samaradorligini taqqoslash.

Kommunikatsiya audit vazifalari quyidagilarni aniqlashga qaratilgan:

- Axborot oqimlaridagi "tor joylar" (filtrlar va to'siqlar);
- Ichki kommunikatsiya kanallaridagi kommunikatsion yuklarning noaniqligi;
- Axborotning o'tishiga to'sqinlik qiladigan nizoli vaziyatlar;
- Yashirin axborot (noqonuniy manbalar) bu esa kommunikatsiyalarga zarar keltiradi;
- Tashkilotning verbal va faoliyat sohalaridagi siyosati haqidagi tushunchalardagi ziddiyatlar (nimalar aytiladi? qanday harakatlar qilinadi?).

Bunday tadqiqotlar avvalgi bosqichda belgilangan maqsadlar doirasida amalga oshirilishi kerak va amalga oshirilayotgan yondashuvlarning strategik maqsadga mosligini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Keyin strategik vazifalar qo'yiladi, ular barcha keyingi qadamlarni belgilab beradi, bu esa qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur. Strategik vazifalar kommunikativ madaniyatni rivojlantiradi va boshqaruva samaradorligini oshiradi. So'nggi bosqichda axborotning to'g'ri oqimini ta'minlash va uni nazorat qilish muhimdir. Kommunikatsiya makonini tashkil etish tashkilotning samaradorligi va hayotiyagini ta'minlashning asosiy omiliga aylanadi, chunki kommunikatsiya - bu tashkilotning umumiy maqsadga erishish yo'lida birligini ta'minlaydigan vosita bo'lib, barcha manfaatdor tomonlar -

pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalar - aniq, tezkor va ishonchli ma’lumotga ega bo‘lishadi.

2.2.2-jadval. Kommunikativ strategiya tuzilmasida amalgaloshiriladigan vazifalar va amaliy tavsiyalar

Bosqich	Vazifa	Amaliy tavsiyalar
Maqsadni aniqlash	Kommunika-tiv maqsadlarni aniq belgilash	<ul style="list-style-type: none"> • O‘quv yili boshida kommunikativ reja tuzing • Maqsadlarni o‘lchash uchun indikatorlar belgilang • Har oy natijalarni jamoa bilan muhokama qiling
Kommunikatsiya siyosati	Ichki va tashqi kommunikat-siyani boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> • Ichki protokollar yarating (elektron xatlar, chat guruhlari) • Ota-onalar bilan “Ochiq eshiklar kuni”ni tashkil eting • Axborot siyosatini ishlab chiqing • Pedagoglar uchun kommunikatsiya treninglari o‘tkazing
Audit	Muloqot tizimini baholash va takomillash-tirish	<ul style="list-style-type: none"> • Har yarim yilda audit o‘tkazing • So‘rovnomalari orqali muammolarni aniqlang • Axborot oqimlarini tahlil qiling va keraksizlarini qisqartiring • Kommunikatsiya xaritasini yangilang
Strategik vazifalar	Rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash	<ul style="list-style-type: none"> • Yangi kommunikativ loyihalarni joriy qiling (onlayn maslahat markazi) • Elektron kundalik va IT vositalarini rivojlantiring • Pedagoglar uchun kommunikativ kompetensiya treninglarini yo‘lga qo‘ying • Jamoada ochiq muloqotni rag‘batlantiring


Axborot oqimlarini shakllantirish	Axborotni tizimli tarqatish	<ul style="list-style-type: none"> • Har haftalik axborot byulleteni chiqaring • Veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarni muntazam yangilang • Hisobotlarni shaffof e'lon qiling • Ma'lumotlarni kerakli guruhlar bo'yicha filtrlash tizimini yo'lga qo'ying
------------------------------------------	-----------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Umumiy natija:

- ❖ Maktab ichidagi muloqot asosida o'zaro ta'sir kuchayadi;
- ❖ Qarorlar qabul qilishda ishonchli ma'lumotlar bazasi yaratiladi;
- ❖ Ota-onalar bilan hamkorlik mustahkamlanadi;
- ❖ Maktab boshqaruvi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi.

Quyidagi jadval (2.2.5-rasm)da maktab direktori tomonidan amalga oshiriladigan kommunikativ strategiyaning asosiy tarkibiy qismlari - axborot olish metodikasi, kommunikatsiyaning samaradorligini baholash metodikasi va teskari aloqani tashkil etish jarayonlari atroflicha yoritib beriladi.

2.2.5-rasm. Kommunikatsiya strategiyasini amalga oshirish



Axborot olish metodikasi bu axborot yig'ish harakatlarini o'z ichiga oladi. Maktab direktori uchun axborot yig'ish - qaror qabul qilishning poydevori hisoblanadi. Direktor boshqaruv faoliyatida

axborot yig‘ish o‘qituvchilardan dars sifati va metodik muammolar bo‘yicha muntazam hisobotlar olish, o‘quvchilar uchun so‘rovnomalari o‘tkazib, ularning ehtiyojlarini aniqlash, ota-onalar bilan uchrashuvlar orqali ta’lim jarayoni haqidagi fikrlarni yig‘ish kabilar harakatlarda nomoyon bo‘ladi. Sifatli axborot maktab boshqaruvida aniq maqsadlarni belgilash va strategik rejalshtirish imkonini beradi.

Axborot almashinushi faqat ma’lumot yuborish bilan cheklanmay, uning natijadorligini baholash orqali mukammallashtiriladi. Kommunikatsiyaning samaradorligini baholash metodikasi direktor faoliyatida muloqot vositalari (yig‘ilishlar, chatlar, elektron tizimlar) dan foydalanish samaradorligini monitoring qilish, pedagoglar va ota-onalar bilan muntazam “feedback” yig‘ish, muammolarni tezda aniqlash va yechish bo‘yicha mezonlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Samaradorlikni baholash orqali direktor maktabdagi muloqot sifatini oshiradi va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

Kommunikatsiyalarni boshqarishda teskari aloqani tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Teskari aloqa - maktab boshqaruvida ochiq muloqotni ta’minlaydigan asosiy vosita. Bu direktor faoliyatida o‘qituvchilar va ota-onalar bilan muntazam muhokama uchrashuvlarini o‘tkazish, anonim fikr-mulohazalar qutisini tashkil etish, o‘quvchilar kengashi orqali ta’lim jarayonida ishtirokchilarning takliflarini yig‘ish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Teskari aloqa rahbarning qaror qabul qilish jarayonida ishtirokchilarni faol jalb etishga yordam beradi, shuningdek, maktabda ishonch va shaffoflik muhitini mustahkamlaydi.

Maktab direktori ushbu uchta tarkibiy qism asosida kommunikatsiyani boshqarishi natijasida:

- ❖ axborot oqimi aniq va tizimli yo‘lga qo‘yiladi;
- ❖ muloqot samaradorligi oshadi;
- ❖ ishtirokchilar (pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalar) boshqaruv jarayoniga faol jalb etiladi;
- ❖ maktabda ochiqlik, ishonch va hamkorlik muhiti shakllanadi.

2.2.2-jadval.Maktab direktorlari uchun kommunikativ strategiya tarkibiy qismlari bo‘yicha tavsiyalar

Tarkibiy qism	Vazifa	Amaliy tavsiyalar
Axborot olish metodikasi	Zarur ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish	<ul style="list-style-type: none"> Pedagoglardan muntazam hisobotlar yig‘ish O‘quvchilar uchun ehtiyojlarni aniqlovchi so‘rovnomalar o‘tkazish Ota-onalar bilan muhokama uchrashuvlari tashkil etish Maktabdagi axborot oqimini nazorat qilish uchun elektron tizimlardan foydalanish
Kommunikatsiyoning samaradorligini baholash metodikasi	Muloqot vositalarini tahlil qilish va takomillashtirish	<ul style="list-style-type: none"> Elektron platformalar, yig‘ilishlar va chatlarning samaradorligini baholash Pedagoglar va ota-onalar fikrlarini yig‘ib tahlil qilish Kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun rejalar tuzish Baholash natijalarini ochiq e’lon qilish
Teskari aloqani tashkil etish	Muloqotda ochiqlik ishtirokni ta’minlash va	<ul style="list-style-type: none"> O‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar bilan muntazam muhokama uchrashuvlari o‘tkazish Anonim fikr-mulohazalar qutisini tashkil etish O‘quvchilar kengashini jalb qilish Fikr-mulohazalarga asoslangan boshqaruv qarorlarini joriy qilish

Maktab direktori uchun kommunikatsiyani samarali boshqarish - bu oddiy muloqot emas, balki strategik va tizimli faoliyatdir. Tahlil qilingan uch bosqichli yondashuv: axborotni yig‘ish, samaradorlikni baholash va teskari aloqani tashkil etish orqali direktor ta’lim muassasasi ichki va tashqi muhitida barqaror va ishonchli kommunikatsion makonni yaratishga erishadi. Bu esa nafaqat pedagogik jamoaning, balki o‘quvchilar, ota-onalar va hamkorlarning faol ishtirokini ta’minalashga xizmat qiladi. Shunday qilib, kommunikativ strategiyalarni chuqur tahlil qilish va ularni amaliyotga samarali joriy etish maktab boshqaruvining muvaffaqiyat kalitlaridan biri hisoblanadi.

Rahbarning kommunikativ strategiyalari faqatgina oddiy axborot uzatish vositasi emas, balki psixologik ta’sir, ijtimoiy muvofiqlashtirish, qarorlar qabul qilish va jamoani ruhlantirishning kuchli omilidir. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, rahbar shaxsining kommunikativ kompetentligi ularning boshqaruv uslubi, jamoada ijtimoiy-psixologik iqlimi yaratish va jamoaning motivatsion holatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Kompleks tahlil shuni ko‘rsatadiki, maktab direktori samarali rahbar sifatida quyidagi jihatlarni uyg‘unlashtira olishi zarur:

- **Verbal va noverbal strategiyalarni vaziyatga mos tanlash;**
- **Kommunikativ-diagnostik va bashorat qobiliyatları** orqali muloqotdagi ehtimoliy to‘siqlarni oldindan ko‘ra bilish;
- **Komunikatsiya siyosatini** tashkilotning maqsad va missiyasiga bog‘lab, ichki va tashqi aloqalarni strategik yo‘naltirish.

Bundan tashqari, kommunikatsiyani boshqarish jarayonida quyidagi ilmiy asoslangan yondashuvlar samaradorlikni oshiradi:

- **Kommunikatsiya auditı** orqali mavjud holatni baholash, axborot oqimlaridagi “tor joylar”ni aniqlash;
- **Ichki kommunikatsiyani** ideologik va tashkiliy vosita sifatida shakllantirish orqali jamoaning yagona maqsad sari harakatini ta’minalash;
- **Tashqi kommunikatsiya strategiyasini** shaxsiylashtirilgan auditoriyalar asosida tuzish;

- **Teskari aloqani tashkil qilish** orqali axborotning bir tomonlama emas, interaktiv shaklini yaratish.

Umuman, maktab direktori uchun kommunikativ strategiyalarni to‘g‘ri tanlash va maqsadga muvofiq qo‘llay olish - bu zamonaviy boshqaruvga strategik yondashuvdir. Shunday qilib, maktab direktori tomonidan kommunikativ strategiyalarni chuqur anglash va tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etish, ta’lim tashkilotining ijtimoiy-pedagogik barqarorligi, innovatsion salohiyati va ta’lim sifati yuksalishiga xizmat qiladi.

III BOB.

BOSHQARUV MULOQOTI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

3.1. Boshqaruv muloqoti tushunchasi, funksiyalari va turlari

Zamonaviy boshqaruv tizimida muloqot - faqat axborot uzatish vositasi emas, balki tashkilotdagi ijtimoiy-psixologik muhit, rahbarlik uslubi va qaror qabul qilish jarayonining asosi sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, umumta'lim muassasalarida rahbar va pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilar o'rtasida samarali boshqaruv muloqotini yo'lga qo'yish - o'quv jarayonining sifatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda boshqaruv muloqoti inson faoliyatining strategik vositasi sifatida e'tirof etiladi. Bunday muloqot orqali axborot almashinuvi bilan birga shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy maqomlar va madaniy qadriyatlar ham shakllanadi. Shu bois, ta'lim tashkiloti rahbari uchun boshqaruv muloqotining turlari va funksiyalarini chuqur anglash, ularni maqsadga muvofiq qo'llay olish zamonaviy rahbarlik kompetentligining muhim tarkibiy qismidir.

Boshqaruv muloqoti - bu rahbarlik faoliyatining markazida turgan strategik vosita bo'lib, uning samaradorligi muassasa ichki hayotining barqarorligi, ijtimoiy-psixologik muhit sifati va jamoaning umumiyligi yo'naltirilganlik darajasini belgilaydi. Samarali boshqaruv muloqoti turli omillar bilan belgilanadi: ishtirokchilar o'rtasidagi ijtimoiy maqomlar, axborot uzatish uslublari, tashkilotdagi axborot oqimlarining ochiqligi, aloqa kanallari sifati, shuningdek, madaniy kontekstdagi kodlash va dekodlashning aniqligi.

P.Drakerning boshqaruv nazariyasida ta'kidlanishicha, rahbar faoliyatining 60-70 foizi kommunikatsiyaga to'g'ri keladi. Bu faqat ma'lumot almashish emas, balki tushuntirish, baholash, maslahatlashish, munosabat o'rnatish, fikrlar uyg'unligini ta'minlash, qarorlarni asoslash jarayonlarini ham qamrab oladi. Drakerning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, har bir rahbar o'z faoliyatida kommunikatsiyani

rejalashtirish, maqsadli auditoriyaga moslashtirish va uni nazorat qilish kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur.

X.Mintzbergning boshqaruv rollari modeli boshqaruv muloqotini “informatsion rol” doirasida tushuntiradi. U rahbarni:

- ❖ **monitor** (axborot qabul qiluvchi);
- ❖ **disseminator** (axborotni tarqatuvchi);
- ❖ **spiker** (tashqi auditoriyaga rasmiy fikr bildiruvchi) sifatida ko‘radi.

Bu model asosida boshqaruv muloqoti nafaqat ichki aloqa, balki tashqi muhit bilan integratsiyalashgan axborot siyosatining uzviy qismiga aylanadi.

R.B.Kogan tomonidan ilgari surilgan transformatsion rahbarlik nazariyasi boshqaruv muloqotini motivatsion vosita sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, muloqot orqali rahbar:

- ❖ jamoada umumiy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantiradi;
- ❖ o‘zgarishlarga ijobiy munosabatni rag‘batlantiradi;
- ❖ ishonch va hamkorlik ruhini mustahkamlaydi.

Transformatsion rahbarlikda muloqot - o‘quv muassasasining madaniy asoslarini mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Kognitiv-emotsional model asosida boshqaruv muloqoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, samarali muloqot faqat axborot almashish emas, balki hissiy-motivatsion ta’sir vositasi hamdir. Muloqotda rahbar:

- ❖ xodimning holatini ilg‘ay olishi (emotsional empatiya);
 - ❖ ongli ravishda kerakli ijtimoiy signalni berishi (intonatsiya, tana tili, pauza);
 - ❖ ijobiy javob olish uchun shaxsiylashgan uslub qo‘llashi lozim.
- Bu model boshqaruv muloqotini kognitiv (bilimga asoslangan) va affektiv (hissiy) resurslar uyg‘unligida tashkil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tarmoq kommunikatsiyasi modeli (Network Communication Model) maktab ichida muloqot kanallarining harakatini aniqlash va modellashtirishga imkon beradi. Tarmoq doirasida:

- ❖ formal va norasmiy axborot oqimlari aniqlanadi;

❖ yagona markaz (rahbar) bilan bog‘langan “yulduz” yoki “doira” shaklidagi muloqot tarmoqlari tuziladi;

❖ muloqot tarmog‘ining samaradorlik darajasi (axborot yetkazilish tezligi, aniqligi, ishonchlilik) matematik ko‘rsatkichlar orqali baholanadi.

Bunday yondashuv rahbarga maktabdagi muloqot muammolarini aniqlash va axborot oqimlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Muloqot jarayoni ta’lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida strategik resurs bo‘lib xizmat qiladi. Uning turlari va funksiyalarini chuqur anglash, ulardan vaziyatga qarab samarali foydalana olishi maktab direktorining kommunikativ strategiyalarni qanchalik qo‘llay olish ko‘nikmasiga bog‘liq.

“Muloqot” so‘zi lotincha “communication” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “xabar berish” degan ma’noni anglatadi. “Muloqot” atamasi ilmiy adabiyotlarda XX asr boshlarida paydo bo‘ldi va uchta ma’noga ega:

1. moddiy va ma’naviy dunyoning har qanday obyektlari o‘rtasidagi aloqa vositalari;

2. odamdan odamga axborot uzatish (shaxslararo muloqot);

3. jamiyatda muloqot va axborot almashinuvi (ijtimoiy muloqot).

Muloqot - bu axborot almashishning o‘ziga xos shakli, hissiy va intellektual mazmunni uzatish jarayoni. Muloqotlar - bu odamdan odamga axborotni uzatishning usuli, og‘zaki va yozma xabarlar, tana harakatlari va nutq parametrlarini o‘z ichiga olgan kommunikatsiya shaklidir.

Deyarli odamni o‘rab turgan barcha narsalar kommunikativ muhitni tashkil etadi. Ushbu muhitning bir qismi bizga yuz berayotgan voqealar haqida ma’lumot beruvchi obyektlar va hodisalardan iborat, ikkinchi qismi esa axborotni uzatish vositalarini tashkil etadi (ya’ni, qanday qilib xabar beriladi).


Kommunikatsiya faoliyati jamiyatda uchta shaklda amalga oshiriladi:

- Muloqot - teng huquqli hamkorlar o‘rtasidagi dialog;

- Boshqaruv - kommunikatorning axborot qabul qiluvchisi ustida maqsadga yo‘naltirilgan ta’siri;

- Taqlid - jamiyatning bir a’zosi boshqalar tomonidan xulq-atvor namunalarini, muloqot uslublarini, hayot tarzini o‘zlashtirishi. Taqlid orqali avloddan-avlodga til, an'analar, bilimlar, ko‘nikmalar o‘tadi. Muloqot - bu odamlarning kommunikativ-axborotli o‘zaro ta’siri.

3.1.1-jadval. Muloqot tuzilishining komponentlari:



Muloqotning turli konsepsiyalari mavjud. Muloqot quyidagicha ko‘riladi:

- axborotni uzatish vositasi sifatida;
- faoliyat sifatida;
- o‘zaro ta’sirning o‘ziga xos shakli sifatida;
- boshqa odamni tushunish usuli sifatida;

- hayot faoliyatining sharti sifatida;
- madaniy va ijtimoiy tajriba uzatish usuli sifatida;
- ta'sir qilish usuli sifatida;
- shaxsning subyektiv dunyosini olib berish vositasi sifatida.

Boshqaruv muloqotning asosiy vazifasi samarali hamkorlikni tashkil etish, maqsadlarni yaqinlashtirish, hamkorlik munosabatlarini o'rnatish va yaxshilashdir.

Kommunikatsiyaning maqsadlari:

1. Boshqaruv subyektlari va obyektlari o'rtasida samarali axborot almashishning ta'minlanishi;
2. Axborot almashish jarayonida shaxslararo munosabatlarni yaxshilash;
3. Alovida xodimlar va guruhlar o'rtasida axborot almashish uchun axborot kanallarini yaratish va ularning vazifalari hamda harakatlarini muvofiqlashtirish;
4. Axborot oqimlarini boshqarish va ratsionalizatsiya qilish.

Boshqaruv muloqotining funksiyalari va turlari

Muloqot bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Odatda beshta asosiy funktsiya ajratib ko'rsatiladi.

- ❖ **Bog'lovchi funksiyasi** - u orqali odamlar har qanday faoliyat jarayonida birlashadilar.
- ❖ **Shakllantiruvchi funksiyasi** - muloqot orqali odamga shaxsiyatining ma'lum xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi.
- ❖ **Tasdiqlovchi funksiyasi** - muloqot jarayonida odam o'zining mavjudligini tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'ladi, U.Jeymsning fikriga ko'ra, "Odam uchun o'zini boshqalar orasida e'tibor qilinmaganligidan ko'ra og'ir jazo yo'qdir". Bu holat "tasdiqlanmaganlik" tushunchasi bilan ifodalanadi. Har kuni biz muloqot jarayonida "bir-birimizning mavjudligimizni tasdiqlaymiz" etiket normalari orqali: tanishish, salomlashish, nomlash, e'tiborli

bo‘lish kabilar orqali. Bu ilmiy tilda odamda “minimal tasdiqlovchi holatni” saqlashga qaratilgan.

❖ **Shaxslararo funksiyasi** - shaxslararo hissiy munosabatlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash.

❖ **Shaxsiy funksiyasi** - bu odamning o‘z-o‘zi bilan muloqot qilishidir. Bu odamning fikrlashning universal usulidir.

Boshqaruv muloqotning turlarini tasniflashda eng keng tarqalgan yondashuvni F.I.Sharkov taklif qilgan. U quyidagi muloqot turlarini ajratib ko‘rsatadi:

*Kommunikatsiya jarayonining miqyosi va unga jalg
qilingan shaxslarning ko‘lami bo‘yicha:*

a) **Ommaviy kommunikatsiya** (bu holatda xabarni ko‘p sonli odamlar, ko‘pincha turli qiziqishlar va kommunikatsion tajribalarga ega bo‘lgan guruuhlar qabul qiladi yoki undan foydalanadi);

b) **O‘rtacha darajadagi kommunikatsiya** (katta ijtimoiy guruuhlar o‘rtasidagi - jamoa, guruuhlararo, ijtimoiy tashkilotlar o‘rtasidagi - ichki tashkilot kommunikatsiyasi);

c) **Lokal kommunikatsiya** (oilaviy, kichik guruhlarda - guruh ichidagi, guruuhlar o‘rtasidagi).

Har bir tashqi subyekt bilan bog‘liq guruuhlararo aloqalar kommunikatsiyasi tashqi xususiyatga ega bo‘ladi - bu **tashqi kommunikatsiyalar deyiladi**. Ichki kommunikatsiyalar esa shaxslararo munosabatlari shaklini olishi mumkin – **shaxslararo kommunikatsiyalar** (odatda ikki kommunikant ishtirok etadigan ideal kommunikatsiya modeliga asoslangan). Shaxslararo kommunikatsiyalar ichki shaxsiy muloqotlardan (intrapersonal) farq qiladi, chunki ular “o‘z-o‘zi bilan muloqot” qiladilar (adam o‘zining ichki “monologini” dialoglashtirib, o‘zining ichki ovozi, vijdon yoki alter ego bilan suhbatlashadi).

*Aloqa usuliga ko‘ra kommunikatsiyalar quyidagilarga
bo‘linadi:*

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita);
- oraliq (masofaviy).

*Kommunikatorlarning tashabbuskorligi asosida
kommunikatsiyalar quyidagilarga bo‘linadi:*

- a) faol;
- b) passiv.


Agar kommunikator qabul qiluvchiga ta’sir qilsa, ammo u xabarlargaga javob bermasa, unda u passiv rolni o‘ynaydi va bu kommunikatsiya ham umumiy holatda **passiv** bo‘ladi. Agar kommunikatsiya jarayonida barcha ishtirokchilar darhol olingan axborotga o‘z harakatlari bilan javob bersalar, xabarlargaga tashabbus ko‘rsatsalar bunday kommunikatsiya **faol** bo‘ladi.

Tashkil etilish darajasiga ko‘ra kommunikatsiyalar quyidagilarga bo‘linadi:

- a) tasodifiy;
- b) tasodifiy bo‘lmagan (tashkil etilgan).

Tasodifiy kommunikatsiyalar o‘z-o‘zidan yuzaga keladi (axborot almashish tasodifiy ravishda oldindan rejalashtirilmagan uchrashuvlarda sodir bo‘ladi va shu bilan birga muhim va mas’uliyatli qarorlar qabul qilinishi mumkin).

*3.1.1-rasm. Axborot oqimining yo‘nalishiga qarab
kommunikatsiyalar quyidagilarga bo‘linadi*



Tashqi kommunikatsiyalar

Tashqi kommunikatsiya tashkilotning ijtimoiy maydonda o‘z imidjini shakllantirish, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda axborot oqimini boshqarish orqali ta’sirchan boshqaruvni ta’minlaydi. Tashqi kommunikatsiya - bu tashkilot yoki ta’lim tashkiloti bilan tashqi muhit (ota-onalar, jamoatchilik, davlat organlari, hamkor tashkilotlar, OAV va boshqalar) o‘rtasida amalga oshiriladigan axborot almashinushi jarayonidir. Bu jarayon maktab direktorining ota-onalar, mahalliy hokimiyat, jamoatchilik va boshqa tashqi subyektlar bilan samarali muloqot o‘rnatishini anglatadi.

Tashqi kommunikatsiyaning turlari:

- ❖ Axborot beruvchi - maktab faoliyati haqida ma’lumot tarqatish;
- ❖ Integratsion - hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va aloqalarni mustahkamlash;
- ❖ Tashviqotchi - maktabning ijobiy tajribalarini targ‘ib qilish;
- ❖ Muammolarni hal qiluvchi - jamoatchilik bilan muloqotda muammolarga yechim topish.

Tashqi kommunikatsiya vositalari:

- ❖ Ommaviy axborot vositalari (OAV) - matbuot anjumanlari, press-relizlar, tele va radio chiqishlar;
- ❖ Rasmiy hujjatlar - hisobotlar, axborot xatlari, protokollar;
- ❖ Ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlar - tezkor axborot tarqatish, onlayn uchrashuvlar;
- ❖ Jamoatchilik tadbirdari - yig‘ilishlar, seminarlar, ota-onalar majlislari, ta’lim yarmarkalari;
- ❖ Hamkorlik shartnomalari - boshqa tashkilotlar, nodavlat sektor yoki homiylar bilan hamkorlik.

Ichki kommunikatsiya

Ichki kommunikatsiya - bu tashkilot ichidagi xodimlar o‘rtasida axborot almashish bo‘lib, maktab jamoasida axborot oqimini boshqarish, muammolarni birgalikda hal qilish, jamoaviy qarorlar qabul qilish hamda rahbar va xodimlar o‘rtasida ishonchli muloqot tizimini yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayon samarali tashkil etilganda, maktabda sog‘lom psixologik muhit shakllanadi va ish unumdorligi ortadi.

Ichki kommunikatsiyaning turlari:

- ❖ Vertikal kommunikatsiya - rahbarlardan xodimlarga yoki aksincha, xodimlardan rahbarlarga ma’lumot yetkazish;
- ❖ Gorizontal kommunikatsiya - pedagoglar yoki bo‘limlar o‘rtasidagi muloqot;
- ❖ Egiz (diagonal) kommunikatsiya - turli bo‘lim va lavozim egalari o‘rtasidagi axborot almashinuvi;
- ❖ Norasmiy kommunikatsiya - ishchi guruhlar, norasmiy suhbatlar orqali ma’lumot almashish.

Ichki kommunikatsiya vositalari

- ❖ Ichki yig‘ilishlar va majlislar - qarorlarni muhokama qilish, muammolarni hal qilish;
- ❖ Ichki buyruqlar va farmoyishlar - rasmiy axborotni yetkazish;
- ❖ Elektron pochta, messenjerlar va platformalar - tezkor axborot almashinuvi;
- ❖ Ichki byulletenlar va xabarlar taxtasi - umumiyl yangiliklarni tarqatish;
- ❖ Suhbat va maslahatlar - individual aloqalarni mustahkamlash.

Bir kanallik kommunikatsiyalar

Kommunikatsiyalar bir kanallik va ko‘p kanallik bo‘lishi mumkin. Bir kanallik kommunikatsiyalar axborot almashish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, u bitta aloqa kanali orqali amalga oshiriladi, masalan, faqat telefon orqali yoki faqat elektron pochta orqali.

Ko‘p kanallik kommunikatsiyalar

Ko‘pkanallik kommunikatsiyalar axborot almashishni bir nechta aloqa kanallari orqali amalga oshirishni nazarda tutadi, masalan, telefon, elektron pochta, xabarlar almashish platformalari va boshqalar. Bu samaraliroq va tezkor axborot almashishni ta'minlash imkonini beradi.

Gorizontal kommunikatsiya

Bu jamoa a’zolari o‘rtasida, boshqaruv tizimidagi teng darajadagi a’zolar o‘rtasida, do’stlar o‘rtasida, jamiyatdagi teng darajadagi guruhlar o‘rtasida yuzaga keladi;

Vertikal kommunikatsiya

Vertikal kommunikatsiyalar, o‘z navbatida, pasayuvchi va ko‘tariluvchi bo‘linadi. Agar kommunikatsiya oqimi bir darajadan past darajaga o‘tsa, bu **pasayuvchi** deb ataladi (rahbarning o‘z xodimlari bilan muloqoti). **Ko‘tariluvchi** axborot esa pastdan yuqoriga o‘tadi va bu xodimlarning rahbarga ish natijalari va joriy muammolar haqida ma’lumot berish uchun ishlatiladi.

Barqaror kommunikatsiya

Tashkilotdagi barqaror kommunikatsiyalar ochiqlik, o‘zaro tushunish va hamkorlikka tayyorlik bilan tavsiflanadi. Bunday kommunikatsiyalar doirasida ishtirokchilar bir-biriga hurmat ko‘rsatadilar, suhbatdoshning pozitsiyasini tinglash va tushunishga tayyor, shuningdek, yuzaga kelgan muammolarni birgalikda hal qilishga tayyor bo‘ladilar. Ushbu kommunikatsiya turi jamoaning samarali ishlashiga va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Beqaror kommunikatsiya

O‘z navbatida, beqaror kommunikatsiyalar ziddiyatli vaziyatlar, ishonchsizlik va ishtirokchilar o‘rtasida hummatsizlik bilan bog‘liq. Bunday kommunikatsiyalar doirasida ishtirokchilar aggressivlikni ko‘rsatadilar, bir-birlarini tinglash va tushunishga tayyor emaslar, shuningdek, yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga intilishmaydilar. Beqaror kommunikatsiyalar ko‘pincha xodimlar o‘rtasida

munosabatlarning uzilishiga, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga va hattoki tashkilotning obro'si pasayishiga olib keladi.

Formal kommunikatsiyalar

Funksiyalarni bajarish va vakolatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aloqalarni, shuningdek, funksiyalarni taqsimlash tizimi va xususiyatlari bilan belgilangan aloqalarni aks ettiradi. Bunday kommunikatsiyalar odatda yozma shaklda amalga oshiriladi (elektron pochta, matnli xabarlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va boshqalar).

Norasmiy kommunikatsiyalar

Bunday kommunikatsiyalar muloqot jarayonida yuzaga keladi. Bu tashkilotda ishtirokchilar o'rtasida samarali teskari aloqa ta'minlaydigan verbal kommunikatsiya haqida so'z bormoqda. Bunday og'zaki kommunikatsiyalarning asosiy afzalligi tez va to'liq axborot almashish imkoniyatidir.

Foydalilaniladigan belgilar tizimiga qarab kommunikatsiyalar quyidagilarga bo'linadi:

Verbal

Bunday muloqot og'zaki va yozma xabarlar orqali amalga oshiriladi. Og'zaki axborot uzatish suhbat, majlis, muzokaralar, taqdimotlar, telefon orqali muloqot jarayonida amalga oshiriladi, bunda eng katta axborot hajmi ovozli aloqa orqali uzatiladi. Yozma kommunikatsiyalar esa hujjatlar orqali amalga oshiriladi, masalan, xatlar, buyrug'lar, topshiriqlar, ko'rsatmalar, nizomlar, bunda rahbar xodimga yozma ko'rsatmalar beradi. So'z orqali muloqotning rivojlanishiga qaramay, ilmiy manbalarga ko'ra, ularning inson muloqotidagi ulushi 10% dan oshmaydi.

Noverbal

Bunday kommunikatsiyalar tanadagi harakatlar va nutq parametrlarini yordamida amalga oshiriladi. Tanadagi harakatlar - noverbal kommunikatsiyalarning asosiy komponenti bo‘lib, u boshqa odamga ta’sir ko‘rsatadi (barcha kommunikatsiyalarning 55% gacha). Bunga kiyim, holat, imo-ishoralar, tanadagi harakatlar, odamning shakli, pozitsiyasi, yuz ifodasi, ko‘z bilan aloqa, qorachiqning o‘lchami, gaplashayotganlar orasidagi masofa kiradi. Nutq parametrlarining o‘rni - noverbal kommunikatsiyalarning ikkinchi muhim komponenti bo‘lib, ularning ulushi barcha kommunikatsiyalarning 35% gacha. Nutq parametrlariga intonatsiya, ovoz balandligi, nutq tezligi, nafas olish chastotasi, so‘z tanlovi, jargon ishlatish, ovozning balandligi, so‘zlarni talaffuz qilish va boshqalar kiradi.

Kodlash xususiyatiga qarab va qabul qiluvchining (manziling) maxsus xususiyatlarini hisobga olgan holda kommunikatsiyalar quyidagilarga bo‘linadi:

- Ommaviy kommunikatsiyalar - ekspressiv xususiyatlarga ega bo‘lgan va keng auditoriyalar uchun mo‘ljallangan kommunikatsiyalar;
- Shaxsiy (individual) kommunikatsiyalar - faqat aniq shaxs tomonidan xabarni olish uchun mo‘ljallangan kommunikatsiyalar;
- Maxfiy kommunikatsiyalar - shaxsiy kommunikatsiyalarning bir turi bo‘lib, uchinchi shaxsning qabul qilishiga mo‘ljallanmagan.

Jarayon xususiyatiga ko‘ra, uning samaradorligini hisobga olgan holda kommunikatsiyalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- samarali (muvaffaqiyatli);
- samarali bo‘lmagan.

Kommunikatsiyaning samaradorligi masalasi juda murakkab. Har bir faoliyat sohasida kommunikatsiyaning samaradorligi faoliyatning o‘ziga xosligiga bog‘liq. Umumiy holatda esa, teskari aloqaning mavjudligi va belgilangan maqsadga erishish kutiladi.

Shunday qilib, boshqaruv muloqoti - nafaqat axborot almashinushi, balki jamoaviy qarorlar qabul qilish, nizolarni boshqarish, ishonchli aloqa va ijtimoiy ong shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uni

tizimli, ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga joriy etish ta’lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

3.2. Kommunikatsiya jarayoni

Ta’lim tashkilotlarini samarali boshqarishning ajralmas sharti - bu izchil, aniq va strategik asoslangan kommunikatsiya jarayonidir. Bugungi tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, raqamli axborot oqimlarining ko‘payishi va ijtimoiy sheriklik muhitining murakkablashuvi sharoitida maktab direktorining kommunikativ kompetentligiga bo‘lgan talablar keskin oshmoqda. Muloqot faqat axborot uzatish emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni qabul qilish, pedagogik jamoani boshqarish, muammolarni aniqlash va hal qilish vositasi sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, kommunikatsiya jarayonini chuqur tahlil qilish, uning bosqichlari, strukturasi va psixologik-madaniy jihatlarini aniqlash maktab rahbariyati faoliyatining dolzarb ilmiy-metodik masalasiga aylanmoqda.

Kommunikatsiya jarayoni - bu ikki yoki undan ortiq odam o‘rtasida axborot almashish maqsadida amalga oshiriladigan ketma-ket harakatlar majmui. Uning maqsadi - almashilayotgan axborotni uzatish va tushunishni ta’minlashdir. Agar o‘zaro tushunish bo‘lmasa, demak, muloqot amalga oshmagan hisoblanadi, ya’ni ikkala tomon ham bunda faol rol o‘ynashi kerak.

Kommunikatsiya - bu uzlucksiz, dinamik va o‘zaro ta’sirga asoslangan jarayon bo‘lib, uning samaradorligi turli jihatlarga: axborot sifati, kanal tanlovi, shaxslararo munosabatlar darajasi va ijtimoiy kontekstga bog‘liq.

Kommunikatsiya jarayoni - bu faqat axborot uzatish emas, balki murakkab psixologik, kognitiv va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat shakli sifatida qaralmoqda. Uning ta’lim muassasalaridagi boshqaruv kontekstidagi roli ayniqsa muhim bo‘lib, bu jarayon rahbar va jamoa o‘rtasida o‘zaro tushunuv, hamkorlik, ijtimoiy muvozanat va boshqaruv samaradorligini ta’minlovchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, kommunikatsiya - bu nafaqat “jo‘natuvchi” va “qabul qiluvchi” o‘rtasidagi axborot uzatish akti, balki bu - kognitiv (bilish), emotsional (hissiy) va ijtimoiy (xulqiy) jihatlarning uyg‘unligidir.

❖ **Kognitiv komponent** - muloqot mazmunini to‘g‘ri shakllantirish va aniq tilda yetkazish;

❖ **Emotsional komponent** - ishonch, empatiya va ruhiy yaqinlikni ta’minlash;

❖ **Ijtimoiy komponent** - o‘zaro hurmat, javobgarlik va axloqiy kontekstni saqlashni anglatadi.

Kommunikatsiya jarayonining to‘rtta asosiy elementi mavjud (3.2.1-rasm):

1. **Jo‘natuvchi** - g‘oya yaratadigan yoki axborot yig‘ib, uni uzatadigan shaxs;

2. **Xabar** - to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborot;


3. **Kanal** - axborotni uzatish vositasi (og‘zaki uzatish, majlislar, telefon muzokaralari, yozma uzatish, xizmat yozuvlari, hisobotlar, elektron pochta, kompyuter tarmoqlari);

4. **Qabul qiluvchi (manzil)** - axborot yuborilgan va uni talqin qiladigan shaxs.

Axborot almashishdagi kommunikatsiya jarayoni o‘zaro bog‘langan bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- G‘oyaning tug‘ilishi yoki axborotni saralash;
- Axborotni uzatish kanalini tanlash;
- Xabarni uzatish;
- Xabarni talqin qilish (interpretatsiya);
- Teskari aloqa

3.2.1-rasm. Kommunikatsiya jarayoni elementlari va bosqichlari



Kommunikativ voqeа - bu umumiy maqsad bilan birlashtirilgan sheriklar о'rtasidagi aloqalar ketma-ketligi.

Har bir aloqa bir qator bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi;
2. Aloqa о'rnatish bosqichi;
3. Kontsentratsiya bosqichi;
4. Tahlil bosqichi;
5. Argumentatsiya va ishontirish bosqichi;
6. Natijani mustahkamlash va aloqani yakunlash bosqichi.

Barcha bosqichlardan eng mas'uliyatli bo'lgan bosqich bu tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi, agar bunga imkoniyat mavjud bo'lsa. Aloqani rejalashtirish, joy va vaqt ni to'g'ri tanlash, kommunikatsiya natijalari bo'yicha o'z pozitsiyalarini aniqlash zarur. Biroq, agar kommunikativ aloqa sheriklari uchun kutilmagan tarzda yuzaga kelsa, tayyorgarlikning imkonsizligini haqida gap borishi mumkin emas. Tayyorlov harakatlariga o'zining psixologik kompetentligini rivojlantirib borish, turli bilim sohalaridagi eruditsiyasini kengaytirish, kommunikatsiya tajribasini to'plash va tahlil qilishni kiritish mumkin.

Ikkinci bosqich - aloqa о'rnatish. Bunda o'zini moslashtirish va sherikning holatini his qilish, ularni o'ziga moslashtirish va kommunikatsiya jarayoniga jalb qilish qobiliyati muhimdir. Moslashtirishning maqsadi sherikning ruhiy holatidagi taranglikni

yengillashtirish va ehtimoliy ichki qarshiligini kamaytirishdan iborat. Bu davr psixologik kontakt o‘rnatalishi bilan yakunlanadi.

Keyin kontsentratsiya bosqichi keladi. Tor ma’noda - bu muammoning mazmuni, tomonlarning maqsadlari va vazifalari, shuningdek, bu muloqotga oid axborotni to‘plashga e’tibor qaratishdir. Biroq, umumiy ma’noda kontsentratsiya bosqichi sherikning xulq-atvoriga diqqatni jamlashni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, aloqaga kirish bosqichida, sheriklar bir-birining birinchi taassurotlarini tezkor tahlil qilishadi va mumkin bo‘lgan xulq-atvor variantlarini shakllantiradilar. Tahlilning maqsadi - suhbatdoshning ehtiyojlarini, qiziqishlarini, xulq-atvor sabablarini tushunish va uning kelgusi xulq-atvorini oldindan aytib berishdir.

Argumentatsiya va ishontirish bosqichi sheriklarning o‘z nuqtai nazarlarini asoslashni va sherikning argumentlarini o‘rganish va muhokama qilishni nazarda tutadi. Bu bosqichda samarali muloqot uchun eng muhim shart - sherikning nuqtai nazariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish va uning o‘z fikrini bildirish huquqini tan olishdir, hatto bu fikr xato ko‘rinishi mumkin bo‘lsa ham.

Nihoyat, natijani mustahkamlash va aloqani yakunlash bosqichi. Bu munosabatlarda juda mas’uliyatli davrdir. Ushbu bosqichda erishilgan kelishuvlar yakunlanadi, sheriklar o‘zлari qabul qilgan qarorlar uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishadi yoki agar kommunikatsiya sheriklarga yoqmasa, aloqani tugatish haqida xabar berishadi. Ushbu bosqichdagi xato ba’zan ko‘p soatlik suhbatning natijasini butunlay o‘zgartirishi mumkin. Har doim suhbatni shunday yakunlash kerakki, keyingi davomiylik imkoniyati bo‘lsin. Masalan, maktab direktori ta’lim sifatining holati va sifatini yaxshilash masalasini muhokama qilishni qaror qildi. Bu holatda direktor - g‘oya tug‘ilgan jo‘natuvchi; ta’lim sifatini yaxshilash va holatini o‘rganish haqidagi axborot - xabarlar; majlis - axborot kanali; qabul qiluvchilar - maktab pedagogik jamoasi, ular xabarni talqin qilishadi va ushbu majlis orqali direktorga teskari aloqaga kirishishadi.

Har bir bosqichi - tayyorgarlikdan tortib, natijani mustahkamlashgacha - o‘zining psixologik yuklamasiga ega:

- ❖ Tayyorgarlik bosqichi - rahbarning kommunikativ niyati, auditoriyani tahlil qilishi, vaqt va joy tanlovi;
- ❖ Aloqa o‘rnatish bosqichi - psixologik kontakt o‘rnatish, hurmat va ishonch muhitini shakllantirish;
- ❖ Argumentatsiya bosqichi - muloqotni dialogik ruhda tashkil qilish, emotsional sabr va ehtiyyotkorlik bilan fikr almashish;
- ❖ Teskari aloqa bosqichi - qarorlar samaradorligini baholash, javob fikrlar asosida o‘zgarishlar kiritish.

Kommunikatsiya jarayonlarini shakllantirish, shuningdek, kommunikatsiya vositalari va kanallarini tanlash, tashkilotning tuzilishi rejalshtirilgandan so‘ng, faoliyat sohasi, qabul qilingan ishlab chiqarish dasturi va boshqaruv tuzilmasiga mos ravishda amalga oshiriladi.

Kommunikatsiya jarayonida axborot

Kommunikatsiya qarorlari, kommunikatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi nizomlar, har bir boshqaruvning iyerarxik darajasi uchun o‘rnatalishi va aniq lavozimli shaxslarga yetkazilishi kerak.

Axborot - bu boshqaruv jarayoni obyekti, bu odamlar o‘rtasidagi muloqot vositasi. Kommunikatsion boshqaruvda ishlatiladigan axborot quyidagilarga bo‘linadi:

1. Asosiy axborot, bu boshqaruv vazifasidan qat’i nazar shakllanadi;

2. Joriy axborot, muntazam yoki bir martalik, aynan shu boshqaruv vazifasi uchun yig‘ilgan. Joriy axborot esa quyidagilarga bo‘linadi:

a) Hujjatlashtirilgan, hujjatlarda (hisob-fakturalar, buxgalteriya va boshqa hujjatlar) qayd etilgan;

b) Hujjatlashtirilmagan (telefon suhbatlari, majlislar, shaxslararo aloqalar, mish-mishlar va h.k.).

Kommunikatsion boshqaruv jihatlaridan axborot iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, texnik axborotlarga tasniflanadi. Tashkilotlarning axborot ehtiyojlarining rivojlanishi kommunikatsiya jarayonlarining axborot ta’minoti talablarini sezilarli darajada o‘zgartirdi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muloqot jarayonida har bir inson axborotni o‘z tajribasi, ehtiyojlari va kutganlariga muvofiq talqin

qiladi. Shuning uchun, maktab direktori tomonidan berilgan xabarlar barcha guruhlar uchun bir xil anglashilganiga ishonch hosil qilish lozim. Bu esa quyidagilarni talab qiladi:

- ❖ bir nechta aloqa vositalari orqali bir xabarni takrorlash (multikanallik);
- ❖ tushunarli til, vizual vositalar va misollar orqali mazmunni mustahkamlash;
- ❖ teskari aloqa asosida xabar qanday tushunilganini tekshirish.

Muloqot jarayonida savolning xususiyatlari

Savol - bu biror obyekt haqida axborotning yetishmasligini bildiruvchi, maxsus shaklga ega bo‘lgan va javob yoki tushuntirishni talab qiladigan taklif. Savol mantiqiy shakllardan biri bo‘lib, u avvalo boshlang‘ich axborotni o‘z ichiga oladi, shuningdek, uning yetishmasligini va qo‘srimcha ravishda to‘ldirish va kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Savolni berish uchun, siz muhokama qilinayotgan mavzu haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz kerak, shuningdek, savolga javob berish uchun kompetensiya va savolning mazmuni va xarakterini to‘g‘ri baholash qobiliyati zarur.

Savollar quyidagi maqsadlar bilan beriladi:

- Sherikning ahamiyatini ta’kidlash;
- Sherikni suhbatga jalb qilish;
- Sherikning ehtiyojlari va istaklarini aniqlash;
- Mumkin bo‘lgan qarshiliklarni aniqlash;
- Kommunikatsiya jarayonini nazorat qilish.

Savollarning quyidagi turlari mavjud:

1. Yopiq savollar;
2. Ochiq savollar;
3. Muqobil savollar (“tanlovsiz tanlov”);
4. Hujum savollari (“qarshi hujum”);
5. “Yopish” savollari;
6. Jalb qilish savollari (yoki “baland ovozda orzu qilish”);
7. Tekshiruv savollari (kelishuvga tayyorlikni tekshirish).

Keling, keltirilgan savollar turlarini batavsilroq ko‘rib chiqaylik.

Yopiq savollar - ko‘pincha zamon va fe’l bilan boshlanadi va “ha” yoki “yo‘q” javobini talab qiladi. Maqsad: rozi bo‘lish yoki tasdiqlashni olish.

Ochiq savollar -kengaytirilgan javobni talab qiladi, chunki bunday savolga “ha” yoki “yo‘q” deb javob berib bo‘lmaydi. Ko‘pincha quyidagi so‘zlar bilan boshlanadi: Nima? Qayerda? Qachon? Nechta? Maqsad: sherikni suhbatga jalb qilish, axborot olish.

Muqobil savollar (yoki tanlovsiz tanlov) - bu manipulyatsiya usuli bo‘lib, u erkin tanlov illyuziyasini saqlagan holda, noxush variantni chiqarib tashlash uchun ishlataladi. Maqsad: sherikning roziligini olish. Bu savol ikkita javobga ega bo‘lib, ikkalasi ham suhbatdoshni kerakli yo‘nalishda qo‘zg‘atadi, qaror hali qabul qilinmagan paytda: “Sizga birinchi yoki ikkinchi yarmida qo‘ng‘iroq qilish qulayroq bo‘ladi?” Yoki: “Siz naqd yoki naqd pulsiz to‘lovni tanlardingizmi?”

Hujum savollari (“qarshi hujum”) - maqsad: sherikni aniq bir harakatni bajarishga undash. Mijoz: “Siz pulni oy oxirigacha o‘tkazib bera olasizmi?” Sotuvchi: “Agar biz sizga buni kafolatlasak, hozir shartnomani imzolashga tayyormisiz?”

“Yopish” savollari - bu kafolatlangan “Ha” bilan yakunlanadigan savollar: “Xizmatlar ko‘rsatishda ishonch juda muhim, shunday emasmi?” Ular sherikning tanqidiy fikrlashini kamaytiradi va qarshilik ko‘rsatishni qiyinlashtiradi. Maqsad: sherikning roziligini olish yoki aniq afzalliklar bo‘yicha tasdiq olish va uni suhbatga jalb qilish: “Shunday emasmi?”, “To‘g‘ri?”, “To‘g‘ri emasmi?”, “Siz rozi emasmisiz?”, “To‘g‘ri emasmi?”, “Sizga o‘xshamaydi?”. Bunday savollar, shuningdek, “Uchta ha” usulining asosini tashkil qiladi, bu usulda iste’molchiga navbatma-navbat, to‘xtovsiz ikkita “yopish” savoli beriladi, ularga suhbatdosh faqat “ha” deb javob bera oladi. Darhol undan keyin (ham to‘xtovsiz) muhokama qilinayotgan masalani o‘z ichiga olgan uchinchi savol beriladi. Bunda “ha” javobini olish ehtimoli deyarli 100% ga teng.

Jalb qilish savollari (yoki “**baland ovozda orzu qilish**”) - bu suhbat mavzusi haqida sherik o‘ziga uchrashuvdan keyin berishi mumkin bo‘lgan ijobiy savollar. Maqsad: sherikni mavzuning ijobiy xususiyatlari haqida xayol qilib ko‘rishga yo‘naltirish, masalan: “Etimol, bu spektaklni tomosha qilish qiziqarli bo‘lardi?”

Tekshiruv savollari (kelishuvga tayyorlikni tekshirish):

Masalan:

“Bu sizga yoqdimi?”, “Bu haqda nima o‘ylaysiz?”

Savollarni shakllantirishni ko‘rib chiqaylik:

“**Nima?**” yoki, yanada yaxshisi, “**Nima aniq?**”, “**Nima konkret?**” - bu savollar suhbatdosh yangi yoki turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lgan so‘zdan foydalanayotganda foydalidir.

“**Kim?**” savolini berish maqsadga muvofiq, agar odam o‘rniga zamon otini (u, ular) ishlatsa va siz uning kimni nazarda tutayotganini aniq bilmasangiz. “**Qayerda?**” va “**Qachon?**” savollari vaqt va joyni aniq ko‘rsatib beradi. “**Qanday?**” - bu juda foydali savol. U har doim fe’llar bilan ishlatiladi va tezda yuqori sifatli axborot olish imkonini beradi. Bunday oddiy savolga javob berishda, suhbatdosh deyarli harakatlar rejalarini ishlab chiqadi.

“**Nechta?**” savoli aniqlik kiritadi va miqdor, o‘lcham yoki ko‘lam haqida gapirganda xotirjamlikni uyg‘otadi.

“**Nima uchun?**” savoli ko‘pincha sabablarni aniqlash yoki oqlashni talab qiladi, bu esa xotirjamlikni uyg‘otmaydi. Chunki bu savol juda ko‘p narsani anglatishi mumkin: “Sizning maqsadingiz nima?” “Qanday asoslar bor?” Hatto, jazolovchi “Nega shunday?” kabi savollar ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun aniqroq savollarni berish ma’qul: “Buning bilan nima erishmoqchisiz?”, “Qanday sabablar sizning qaroringizni belgilaydi?”, “Bu siz uchun qanday muhim?”

Boshqaruv muloqotida muzokaralar jarayonida suhbatni shunday olib borish maqsadga muvofiqki, sherik gapirsin, va buning uchun uni suhbatga jalb qilish zarur. Sherikni o‘z niyatlari, ehtiyojlari va muammolari haqida gapirishga majbur qilish uchun maxsus savollarni ishlatish mumkin. Masalan: uning fikrlari haqida; uning ishidagi faktlar

haqida; uning faoliyati va keyinchalik kiritiladigan tashabbuslari bilan bog‘liq savollar; rozi bo‘lish haqidagi savol “Siz bunday imtiyozlarni olishni xohlar edingizmi?” - bu sherikning suhbatga ishtirok etishini ta’minlaydi va unga taklifga ijobiy qarashni shakllantiradi. Agar javob “Yo‘q” bo‘lsa, unda tushuntirish savoliga - “**Nima uchun?**” javobini berish mumkin, bu esa yashirin qarshiliklarni aniqlashga yordam beradi. Agar sherikning kelishuvga tayyorligi haqida ishonch yo‘q bo‘lsa, umumlashtirilgan savol beriladi: “**Mana, barcha foydalar... Bu haqda nima o‘ylaysiz?**” Agar hali ham ishonch bo‘lmasa, u holda yo‘nalishlarni qidirish uchun savollar beriladi: “**Qaysi imtiyozlar sizni ko‘proq qiziqtiradi?**”, “**O‘z takliflaringizni sanab bera olasizmi?**”. Tushunilganidan so‘ng, bayonot-savol qo‘yish mumkin: “**Agar men bu imtiyozni isbotlasam, taklifni qabul qilasizmi?**” Agar “Yo‘q” javobini eshitsangiz, yashirin to‘sialar haqida savol berish mumkin: “**Boshqa sabablar bo‘lishi mumkinmi?**” Shunday qilib, siz qarorlarni to‘g‘rilash uchun kerakli axborotni to‘playsiz.

Shunday qilib, murakkab vaziyatga tushib qolmaslik uchun, muloqot qiladigan sherikingizni yaxshi bilishingiz, uning qiziqishlari, kompetentsiya darajasi, niyatlari va kutuvlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishingiz kerak. Agar to‘g‘ri prognoz qilishni bilsangiz, savollarga javob berish nafaqat qiziqarli, balki yoqimli ham bo‘ladi.

1. Savolga javob berishdan oldin, bir oz pauza qiling (kamida 8 soniya).
2. Agar savol tarkibiga ko‘ra murakkab bo‘lsa (ya’ni, bir nechta oddiy savollardan iborat bo‘lsa), uni avval tarkibiy qismlarga bo‘ling.
3. Agar savol mazmuni bo‘yicha qiyin bo‘lsa, unda:
 - a) Savolni takrorlashni so‘rang; unda aksentlar o‘zgarishi yoki butun ma’no o‘zgarishi mumkin;
 - b) Savolni qanday tushungan bo‘lsangiz, shunday takrorlang;
 - c) Bir necha daqiqa fikr yuritishga ruxsat so‘rang;
 - d) O‘z tajribangizdan o‘xhash misol keltiring.
4. Agar sizga ochiq turdagи savol berilgan bo‘lsa, sherikning aniq qaysi ma’lumotni bilishni xohlayotganini aniqlang.

5. Agar sizga kutilmagan savol berilsa va siz unga qanday javob berishni bilmasangiz, savolni yozib olishga ruxsat so‘rashingiz mumkin, shunda unga bir oz vaqt o‘tgach javob bera olasiz.

6. Agar sizga noto‘g‘ri tushungan holda javob berilgan bo‘lsa, bu holatni darhol tuzatish va fikringizni qayta shakllantirish kerak.

Har qanday muloqotida, agar sizda aniq javob bo‘lmasa, har doim shunday usulni tanlashingiz mumkin, bu esa noqulay vaziyatdan chiqib ketishga yordam beradi. Ammo muloqot ishtirokchilari shuni esda tutishlari kerakki, javoblardan qochish usullaridan haddan tashqari foydalanish mumkin emas.

Maktab boshqaruv tizimida kommunikatsiya jarayoni asosiy o‘rin tutadi. Chunki samarali boshqaruv - bu, eng avvalo, ishonchli va maqsadga yo‘naltirilgan muloqotni tashkil qilishdir. Ushbu jarayon nafaqat axborot almashinushi sifatida, balki murakkab psixologik, ijtimoiy va boshqaruviy faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Boshqaruv kommunikatsiyasining samaradorligi, birinchi navbatda, maktab direktori tomonidan tanlanadigan kommunikativ strategiyalarning to‘g‘riligiga bog‘liq. Direktordan nafaqat boshqaruv qarorlarini chiqarish, balki pedagogik jamoa, o‘quvchilar, ota-onalar hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali, ochiq va teskari aloqaga asoslangan muloqot yuritish talab etiladi. Ayniqsa, maktab muhitida yuzaga keladigan masalalarni o‘z vaqtida aniqlash va hal etishda savollarni to‘g‘ri shakllantirish, muloqotdagи ichki qarshiliklarni yumshatish, muhokama va ishontirish bosqichlarini samarali tashkil etish zarur.

Shuningdek, savollar bilan ishslashning uslublari - yopiq, ochiq, muqobil, “yopish”, hujum, jalb qiluvchi va tekshiruv savollarini maqsadli qo‘llash maktab direktori uchun muloqotni boshqarishning muhim vositasiga aylanadi. Bu esa suhbatdoshlarda ishonch uyg‘otadi, ularni faollikka jalb qiladi va muhokama qilinayotgan masalalarning mohiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Demak, savollar muloqotni boshqarish, ishtirokchilarni jalb qilish, fikrlashni faollashtirish va qaror qabul qilishga tayyorlash vositasi bo‘lib, yopiq savollar - faktni aniqlaydi, nazorat qiladi; ochiq savollar -

tafakkurni faollashtiradi, erkin fikr almashish imkonini beradi; Muqobil savollar - tanlov orqali rozilikni rag‘batlantiradi; Jalb qiluvchi va “yopish” savollar - suhbatdoshni qiziqishga undaydi va ijobjiy munosabatni kuchaytiradi. Savol-strategiyalarning ongli qo‘llanilishi maktab rahbarining kommunikatsion samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Raqamli vositalar, og‘zaki va yozma kanallar, majlis va uchrashuvlar - bularning barchasi kommunikatsiya samaradorligini ta’minlovchi asosiy vositalardir. Yana bir muhim jihat shundaki, maktabdagagi kommunikatsion muhit bevosita tashkilotning ichki iqlimiga, xodimlar o‘rtasidagi ishonch darajasiga va ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Demak, maktab rahbariyati uchun kommunikatsion boshqaruva faqat texnik jarayon emas, balki psixologik va pedagogik jihatdan asoslangan, izchil va ongli faoliyatdir.

Kommunikatsiya jarayoni maktab boshqaruvining ajralmas va markaziy elementi bo‘lib, uning samaradorligi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har bir bosqich - g‘oyaning shakllanishidan tortib, teskari aloqa va natijani mustahkamlashgacha - o‘ziga xos vazifalarga ega bo‘lib, direktor va jamoa o‘rtasida samarali, maqsadli va ijobjiy muloqot qurish imkonini beradi. Kommunikatsiya jarayonida savollarning to‘g‘ri tuzilishi, mos kanal va vositalarning tanlanishi, sherikning psixologik holatini hisobga olish orqali ijobjiy muloqot muhiti yaratiladi. Ayniqsa, maktab direktori tomonidan axborot oqimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, fikr almashinuvi va teskari aloqa orqali o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda ota-onalar bilan shaffof va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish ta’lim sifati va boshqaruva samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, kommunikativ strategiyalarni chuqur tushunish va amaliyotga joriy etish zamonaviy maktab rahbaryatining asosiy zaruriyatlaridan biri hisoblanadi.

3.1.1-jadval. Zamonaviy boshqaruvda kommunikatsiya samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi

Ko‘rsatkich nomi	Tavsif
O‘zaro tushunish	Muloqot ishtirokchilari xabarning bir xil

	ma'noda talqin qilinishi
Axborot aniqligi	Xabar mazmunining noaniqlikdan holi bo'lishi
Teskari aloqaning mavjudligi	Qabul qiluvchining javobi asosida xabarning qayta ishlanishi
Muloqot tezligi	Axborotning kerakli vaqtda yetkazilishi
Qoniqish darajasi	Ishtirokchilarning kommunikatsiya jarayonidan mammunligi

Bu mezonlar asosida maktab direktori o‘z kommunikativ faoliyatini doimiy tahlil qilib borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kommunikatsiyani to‘g‘ri tashkil qilish, bosqichlarini chuqur anglash va har bir elementini ongli ravishda boshqarish maktab direktori uchun muvaffaqiyatli boshqaruvning asosi hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida kommunikativ strategiyalarni shakllantirish va takomillashtirish nafaqat rahbarning shaxsiy kompetensiyasi sifatida, balki butun maktab jamoasining rivojlanishiga xizmat qiluvchi kuchli omil sifatida qaralmoqda. Bu jarayonning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi esa ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar erishayotgan natijalarni yaxshilash, ochiqlik, jamoaviy muvofiqlik, ijtimoiy ishonchning ortishiga va maktabning ijtimoiy obro‘sini mustahkamlashga xizmat qiladi.

IV.BOB.

BOSHQARUV MULOQOTI VOSITALARI

4.1. Verbal va Noverbal muloqotning xususiyatlari, tuzilishi va funksiyalari

Boshqaruvda rahbarning kommunikativ salohiyati ta’lim muassasasining ijtimoiy-psixologik muhitini shakllantirishda, samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishda va boshqaruv jarayonlarining muvaffaqiyatini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Ayniqsa, verbal va noverbal muloqot vositalari rahbarlik faoliyatida muhim kommunikatsion resurs sifatida namoyon bo‘ladi. So‘nggi yillardagi psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, rahbar shaxsining muloqotda ishtirok etish sifati va uslubi ta’lim muassasasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jihat, ayniqsa, maktab rahbarining pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalar bilan bo‘ladigan muloqotida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kommunikatsion muloqot axborot uzatish bilan bog‘liq bu esa nutq yordamida (verbal) yoki turli xil harakatlar yordamida (noverbal) amalga oshiriladi. Verbal kommunikativ vositalarga nutq - og‘zaki va yozma kiradi. Ba’zi fikrlar shuni ta’kidlaydiki, ovozning intonatsiyasi, nutqning tezligi va boshqa qo‘shimcha ifodalar ham verbal kommunikatsiyaga kiradi. Biroq, bunday xususiyatlar nafaqat aytilgan so‘zning bevosita ma’nosini to‘ldirishi, balki uni to‘liq bekor qilishi mumkinligini hisobga olgan holda, biz noverbal vositalar sifatida so‘zdan tashqari barcha narsalarni hisoblaymiz. Shunday qilib, noverbal kommunikativ vositalarga quyidagi barcha axborot uzatish vositalari kiradi:

1.Xusnixat (yozuv);

2.Nutq atrofidagi vositalar (intonatsiyalar, ovoz balandligi, nutq tezligi, ritmi, ovozning tembri, diktsiya, nutqqa qo‘shiladigan tovushlar - “e-e-e”, “hm-m”, yo‘talish va boshqalar);

3.Kinestetik vositalar (yuz ifodasi, imo-ishoralar, tanadagi holatlar, yurish, sherikka tegishish va hokazo);

4.Muloqot masofalari (suhbatdoshlar o‘rtasidagi masofa);

5.Makondan foydalanish (sheriklarning bir-biriga nisbatan joylashuvi);

6.Muloqot joyi (kommunikatsiya o‘tayotgan hudud);

7.Muloqot vaqtি (faqat vaqt emas, balki sherikning psixologik yoki fiziologik holati);


8.Hidlar (odamning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiluvchi sheriklar tomonidan ishlataladigan parfumlar, shaxsiy hidlar, bexosdan seziladigan hidlar, atrof-muhitdagi hidlar);

9.Sheriklarning uslubi (kiyim, soch turmagi, aksessuarlar va hokazo).

Verbal kommunikatsiyaning xususiyatlari

Boshqaruv muloqoti jarayoni verbal (nutq) va noverbal (nutqsiz) vositalar yordamida amalga oshiriladi, bunda ikkinchisining ahamiyati, odatda, kundalik ong tomonidan kam baholanadi. Aslida, noverbal kommunikatsiya birinchi qarashda ko‘rinishidan ko‘ra, juda muhim rol o‘ynaydi. Mashhur amerikalik olimlar Rey Birdvistell va Albert Megrabyan ma’lumotlariga ko‘ra, to‘liq xabar odam tomonidan yuz ifodasi va imo-ishoralar orqali 55% qabul qilinadi, intonatsiya orqali 38% va so‘zlar orqali faqatgina 7% (4.1.1-rasm). Shuning uchun, ushbu bo‘limning katta qismi noverbal kommunikatsiyaga bog‘ishlanadi.

4.1.1-rasm.



- 55% - imo-ishoralar, poza va yuz ifodasiga bog‘liq;



- 38% - ovoz ohangi va modulatsiyaga bog‘liq;



- 7% - aytilayotgan so‘zlarning mazmuniga bog‘liqdir.

Shunga qaramay, nutqni to‘g‘ri ishlatish - bu boshqaruv faoliyatida rahbarning juda muhim xususiyatidir. Nutq - bu tilni amaliyotda ishlatishdir (til esa, o‘z navbatida, so‘zlarning ma’nolari va sintaksisdan tashkil topgan belgilar tizimidir, bu so‘zlar va ularning ma’nolari va gap qurilishiga oid qoidalar majmuasidir). Nutq yordamida biz til vositalaridan foydalanib, turli muloqot va faoliyat vazifalarini hal qilamiz.

Nutqiy akt - bu tilni individual va har safar yangi ishlatishdir.


Nutqning bir nechta funksiyalari mavjud:

1. Signifikativ (ma’no beruvchi);
2. Regulyativ (boshqaruvchi);
3. Suhbatlashish;
4. Kommunikatsiya.

4.1.1-jadval. Nutq funksiyalari

Signifikativ (belgilovchi)	Regulyativ	Ommaviy (Ijtimoiy)	Kommunikatsiya
Insonning nutqini hayvonlarning muloqotidan ajratadi (nutq yordamida insonning shaxsiyatini ifodalashga yordam beradi)	Insonlarni va o‘z-o‘zini boshqarishni tartibga solish bilan bog‘liq	So‘z faqat alovida predmetni emas, balki o‘xhash predmetlar guruhini ham ifodalaydi va har doim muhim xususiyatlarning tashuvchisi bo‘ladi	Bilimlar, munosabatlar, istaklar, tuyg‘ularni uzatish

Shunday qilib, o‘zining hayotiy ahamiyati jihatidan nutq polifunktional xususiyatga ega.



Verbal muloqot - bu ikki tomonlama nutq almashinuvi jarayoni bo‘lib, odamlar o‘rtasida o‘zaro tushunishga olib keladi. U odamlarni til yordamida birlashtiradi. Biroq, bu birlashtirish usuli turlichay bo‘lishi mumkin. Bu nutq turi bilan bog‘liq. Ikki asosiy nutq turi ajratiladi: tashqi va ichki nutq. Tashqi nutq og‘zaki (dialogik va monologik) va yozma nutqni o‘z ichiga oladi.

